**FARADEV SAMARASI** - doimiy magnitik maydonda joylashgan moddadan magnitik induksiya chiziqlari bo'yicha chizig'iy qutblangan yorug'lik tarqalganda uning qutblanish tekisligining aylanishi

**FARADEV SONI** - Avogadro sonining elektron zaryadiga ko'paytmasiga teng asosiy fizikaviy doimiy

**FERMI ENERGIYASI** - Fermi sathiga mos kelgan energiya

**FERMI KVAZISATHLARI** - yarimo'tkazgichlarda nomuvozanat holatdagi sharoitlarda ruxsat etilgan energiya zonalari zaryad tashuvchilarga to'ldirilganligi bilan tavsiflanuvchi energiyaviy sathlar

**FERMI SATHI** - mutlaq nol temperaturada fermionlar egallagan eng yuqori energiya sathi

**FERMI SIRTI** - kvaziimpulslar sohasida metallning band qilingan elektron holatlarini mutlaq nol temperaturada elektronlar bo'lmaydigan sohadan ajratib turuvchi biday energiyalar sirti

**FERMI-DIRAK STATISTIKASI** - yarimbutun spinli ( $\frac{1}{2}$  birliklarda) ayni zarralar tizimlariga qo'llaniladigan kvant statistikasi

**FERMI-DIRAK TAQSIMOTI** - biday fermionlarning energiya sathlari bo'yicha taqsimlanishi

**FERRIMAGNETIZM** - muddaning tarkibiga kiruvchi ionlarning magnitik momentlari ikkita yoki undan ortiq son tarkibiy tizim hosil qiladigan holati

**FERRODIELEKTRIK** - o'zida ferromagnetiklik va dielektriklik hossalarini namoyon qiluvchi modda

**FERROMAGNETIK** - muayyan temperatura(Kyuri nuqtasi)dan pastroqda atomlar yoki ionlar magnitik momentlarining (nometall kristallarda), yoki jamlashgan elektronlar magnitik momentlarining (metall kristallarda) ferromagnitik tartibi o'rnatshadigan modda

**FERROMAGNETIZM** - muddaning uning atomlari yoki ionlari magnitik momentlarining o'z-o'zidan bir-birlariga parallel joylashish qoladigan holat

**FIZIKAVIY VAKUUM** - kvant maydonlarning qandaydir real zarralar mavjud bo'lmasligi xos bo'lgan eng quyi energiyaviy holati

**FLUKTUATSIYA** - *lot. fluctuatio - tebranish* - fizikaviy kattalik qiymatining o'z o'ttacha qiymatidan tasodifiy chetlanishlari

**FLUKTUATSIYA TOKI** - elektronlarning issiqlik harakati natijasida o'tkazgichda elektrik zaryadning ko'chishidan yuzaga keluvchi nomuntazam elektrik toki

**FONON** - kristall panjaradagi elastik to'lqingga mos keluvchi kvazizarra

**FORVAKUUM** - vakuum tizimda yaratiladigan dastlabki siyraklanish

**FORVAKUUM NASOS** - yuqoritoq vakuum hosil qiluvchi nasosning ishlay boshlashi uchun zarur bo'lgan dastlabki vakuumni yaratuvchi vakuum nasos

**FOTODIELEKTRIK SAMARA** - elektromagnitik nurlanish ta'sirida muhit statik dielektrik singdiruvchanligining o'zgarishi

**FOTODIO** - bir tomonlama fotootkazuvchanlikka ega bo'lgan yorug'lik nurlanishining yarimo'tkazgich fotoelektrik tanlanma qabul qilgichi

**FOTOELEKTRIK HODISALAR** - moddada elektrmagnitik nurlanish ta'sirida sodir bo'luvchi elektrik hodisalar

**FOTOELEKTRIK SPEKTROSKOPIYA** - yar'no'tkazgichlarda-  
gi kirishmalarning kirishmaviy fotootkazuvchanligi elektri bo'yicha  
ularning kimyoviy tarkibini aniqlash va energiyaviy tuzilishini tadqiq  
qilish

**FOTOELEKTRIK TOK** - fotosamara natijasida vujudga kelgan  
elektrik tok

**FOTOELEKTRIK YARIMO'TKAZGICH ASBOB** - yorug'lik  
kattaliklarini elektrik kattaliklarga aylantirish uchun mo'ljallangan yarim-  
o'tkazgich asbob

**FOTOELEKTRIK YURITUVCHI KUCH** - yarimo'tkazgichda  
elektrmagnitik nurlanish yutilganida vujudga keladigan elektrik yurituvchi  
kuch

**FOTOELEKTRON** - elektrmagnitik nurlanish ta'sirida moddadan  
uchib chiqqan elektron

**FOTOELEKTRON EMISSIYA** - qattiq yoki suyuq jism sirtidan  
shu sirtga tushuvchi elektrmagnitik nurlanish ta'sirida vakuum yoki boshqa  
muhitga elektronlarning chiqarilishi

**FOTOELEKTRON KO'PAYTGICH (FEK)** - zaif yorug'lik  
signallarini elektrik signallarga aylantirib beruvchi asbob; ishlashi  
fotoelektron va ikkilamchi elektron emissiyaga asoslangan

**FOTOELEKTRON SPEKTROSKOPIYA** - modda tuzilishini  
o'rGANISH usuli; moddada ultrabinafsha nurlar uyg'otgan fotoelektron  
emissiyada uchib chiquvchi elektronlar energetik spektrini o'chashga  
asoslangan

**FOTOELEMENT** - ishlashi fotosamaraga asoslangan elektrik  
asbob

**FOTOGALBANIK ELEMENT** - yorug'lik ta'sirida elektron-  
kovak o'tishda elektrik yurituvchi kuch yuzaga keladigan asbob

**FOTOGALBANIK SAMARA** - elektrik o'tish bilan ajratilgan turli  
ikki yarimo'tkazgich yoki yarimo'tkazgich va metall orasida  
elektrmagnitik nurlanish ta'sirida elektrik yurituvchi kuchning vujudga  
kelishi

**FOTOIONLANISH** - moddalarning yorug'lik ta'sirida ionlanishi

**FOTOKATOD** - fotoelektron asboblarning tushuvchi yorug'lik  
ta'sirida elektronlar chiqaruvchi elektrodi

**FOTOKIMYOVIY REAKSIYA** - modda yorug'likni yutishi  
natijasida yuzaga keluvchi kimyoviy reaksiya

**FOTOLYUMINESSENSIYA** - yorug'lik ta'sirida yuzaga keluvchi lyuminessensiya

**FOTOMAGNITOELEKTRIK SAMARA** - yarimo'tkazgichda elektromagnitik nurlanish ta'siri ostida magnitik maydonga va diffuziyalanuvchi zarralar oqimiga tik bo'lgan elektrik maydon kuchlanganligining vujudga kelishi

**FOTON** - elektromagnitik maydon kvanti, nolga teng tinchlik massaga va 1 ga teng spinga ega bo'lgan elementar zarra

**FOTON IMPULSI** - foton energiyasining yorug'likning vakuumdagi tezligiga nisbati

**FOTOP'EZOELEKTRIK SAMARA** - bir vaqtida qisilgan va yoritilgan bir jinsli yarimo'tkazgichda elektrik yurituvchi kuchning vujudga kelishi

**FOTOQARSHILIK** - ishlashi fotoqarshilik samarasidan foydalanishga asoslangan fotoelektrik yarimo'tkazgich asbob

**FOTOREZISTIV (FOTOQARSHILIK) SAMARA** - faqat elektromagnitik nurlanish ta'sirida yarimo'tkazgich elektrik qarshiligining uni isitish bilan bog'liq bo'lmagan o'zgarishi

**FOTOREZISTOR (FOTOQARSHILIK)** - o'z elektrik qarshiligini yorug'lik ta'siri ostida o'zgartiradigan yarimo'tkazgich fotoelement

**FOTOSAMARA (FOTOELEKTRIK SAMARA)** - ichki fotosamara yoki yarimo'tkazgichda sodir bo'ladigan foto'o'tkazuvchanlik

**FOTOSAMARANING KVANT CHIQISHI** - fotosamarada nurlanuvchi sirtdan chiquvchi elektronlar sonining o'sha vaqt ichida yutilgan fotonlar soniga nisbati

**FOTOSAMARANING UZUN TO'LQIN CHEGARASI** - muayyan modda uchun tashqi fotosamara mavjud bo'la oladigan yorug'likning minimal takroriyligi

**FOTOTIRISTOR** - volt-amper tavsifnomasida manfiy differensial qarshilik uchastkasi bo'lgan, uch yoki undan ortiq  $p-n$  o'tishli fotoelektrik yarimo'tkazgich asbob

**FOTOTRANZISTOR** - ikki yoki undan ortiq o'tishga ega fotoelektrik yarimo'tkazgich asbob

**FOTOTUG'ILISH** - yuqori energiyali gamma-kvantlar ta'sirida atom yadrolari va nuklonlarda zarralar hosil bo'lish jarayoni

**FOTOYARIM O'TKAZGICH** - ichki fotosamara yoki foto'o'tkazuvchanlik sodir bo'ladigan yarimo'tkazgich

**FOTOO'TKAZUVCHANLIK** - yorug'lik ta'sirida yarimo'tkazgich elektrik o'tkazuvchanligining ortishi

**FRANK-RID MANBAI** - plastik deformatsiya jarayonida dislokatsiyalar ko'payishining asosiy mexanizmi

**FRANS-KELDISH SAMARASI** - tashqi elektrik maydon mavjudligida yarimo'tkazgichning xususiy yorug'li, yutish chegarasi (chekkasi) kichik takroriyliklar tomon siljish

**GALVANOMAGNITIK SAMARA** - ma'lum zinchlikli elektrik tokni hosil qiluvchi elektronlar yoki kovaklarning induksiyaviy ko'ndalang magnitik maydonda og'ishi natijasida yarimo'tkazgichda ko'ndalang elektrik maydon kuchlanganligining vujudga kelishi

**GALVANOMAGNITIK YARIMO'TKAZGICH ASBOB** - yarimo'tkazgichlardagi galvanomagnitik samara - Xoll samarasidan foydalanishga asoslangan magnitelektrik yarimo'tkazgich asbob

**GALVANOMETR** - kichik toklarni, kuchlanishlar va elektrik kattaliklarni o'lishashda ishlataladigan yuqori sezgir elektrik o'tkazgich asbob

**GAMMA-KVANT**,  $\gamma$ -kvant - katta energiyaga (odatda,  $10^5$  eV dan katta) ega bo'lgan elektrmagnitik maydon kvanti

**GAMMA-LAZER** -  $\gamma$ -diapazonidagi kogerent elektromagnitik nurlanish manbai

**GAMMA-NURLANISH** - to'lqin uzunligi  $10^{-8}$  sm dan kichik qisqa to'lqinli elektromagnitik nurlanish

**GAMMA-SPEKTROMETR** - gamma nurlanish spektrlarini o'lishash asbob

**GAMMA-YEMIRILISH** - gamma nurlanish vujudga keladigan yadroviy jarayon

**GANN DOMENLARI** - kuchli elektrik maydonlar mavjudligida ba'zi bir yarimo'tkazgichlarda paydo bo'ladigan turli solishtirma elektrik qarshilikli sohalar

**GANN SAMARASI** - N-simon volt-amper tavsifnomali yarimo'tkazgichlarda elektrik tokning yuqori takroriylikli tebranishlarini generatsiyalash

**GANN-DIODI** - elektromagnitik tebranishlarni generatsiyalash yoki kuchaytirishda Gann samarasidan foydalaniladigan p-n o'tishsiz ikki elektrodi yarimo'tkazgich asbob

**GANTMAXER SAMARASI** - metall plastinkalar sirtiyi impedansining doimiy magnitik maydon kattaligiga g'ayri tabiiy bog'lanishi (cho'qqilarining vujudga kelishi)

**GENERATSIYA-REKOMBINATSIYA SHOVQINI** - yarimo'tkazgichlarda elektronlar va kovaklar generatsiyasi va

rekombinatsiyasining tasodifiy tabiatini bilan bog'liq bo'lgan elektron fluktuatsiyalar

**GERMANIY (Ge)** - atom raqami 32, atom massasi 72,59 bo'lgan kimyoviy element. Yaltiroq-kulrang qattiq modda, zichligi  $5327 \text{ kg/m}^3$ , erish temperaturasi -  $937,5^\circ \text{S}$ . Germaniy yarimo'tkazgich elementlardan biri

**GTEROFAZAVIY TUZILISH** - ko'p fazaviy kristall qattiq jismni tashkil qilgan kristall fazalarning fazoviy taqsimlanishi

**GTEROGEN TIZIM** - fizikaviy xossalari yoki kimyoviy tarkibi turlicha bo'lgan fazalardan tashkil topgan termodinamik tizim

**GTEROLAZER** - geterostrukturalar asosida yaratilgan yarimo'tkazgich lazer

**GTEROSTRUKTURA** - bir nechta geteroo'tishli yarimo'tkazgich struktura (tuzilma)

**GTEROO'TISH** - kimyoviy tarkibi bo'yicha farqli bo'lgan ikki yarimo'tkazgichning tutashuvi

**GIBRID INTEGRAL MIKROTUZILMA** - bir qism elementlari mustaqil konstruktiv shakllangan integral mikrotuzilma

**GIDROSTATIK BOSIM** - harakatsiz suyuqlik yoki gazlar og'irlik kuchlarining ularga nisbatan tinch turgan jismrlarga ko'rsatadigan ta'siri

**GIDROSTATIK QISUV** - biror hajmdagi suyuqlik to'liq potensial energiyasining shu hajmdagi suyuqlik massasiga nisbati

**GISTEREZIS** - *yunon. hysteresis - orqada qolish. kechikish* - jism holatini tavsiflovchi fizikaviy kattalikning tashqi sharoitlarni tavsiflovchi fizikaviy kattaliklarga bir qiymatli bog'liq emasligi

**GISTEREZIS SIRTMOG'I** - jism holatini tavsiflovchi fizikaviy kattalikning davriy o'zgarib turuvchi tashqi sharoitlarni tavsiflovchi fizikaviy kattalikka bog'liqligini ifodalovchi grafik tasviri

**g-OMIL** - kvant tizimlarning magnitik maydonda energiya sathlarining parchalanish ko'lamini belgilovchi ko'paytuvchisi

**GOMOO'TISH** - geteroo'tishdan farqli ravishda bitta yarimo'tkazgich kristallda turli xil o'tkazuvchanlikli ikki soha kontakti

**GRAMM-ATOM** - kimyoviy elementning uning atom massasiga teng bo'lgan grammalar soni

**GREY (Gr, Gy)** - ionlovchi nurlanish yutilgan dozasi va kerma *SI* birligi

**HIDROGEN BOG'LANISH** - hidrogen atomi va u yoki bu molekulaga oid hamda ajralmagan elektronlar juftiga ega bo'lgan biror atom orasida vujudga keluvchi tortishuv kuchlari

**HOLATLAR ZICHLIGI** - energiyasi biror energetik oraliqda jamlangan statistik tizim holatlari sonining shu oraliq kattaligiga nisbatli

**IDEAL KRISTALL** - tuzilish nuqsonlari bo'lmay n kristall

**IKKILAMCHI ELEKTRON EMISSIYA** - elektronlar oqimi vositasida qattiq yoki suyuq jism sirtidan elektronlarning urib chiqarilishi

**IKKILAMCHI ZARRA** - tezlatilgan zarraning nishon ro'para dastasining zarralari, qoldiq gaz zarralari va h.k. bilan o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladigan zaryadlangan yoki betaraf zarra

**IMPULSIY TO'G'RI TOK** - to'g'ri tok impulsining davomiyligi, takroriyligi va shakli berilgan holdagi choqqi qiymati

**INDIY (In)** - atom raqami 49, atom massasi 114,82 bo'lgan kimyoviy element. Kumushsimon-oq metall, zichligi  $7362 \text{ kg/m}^3$ , erish temperaturasi  $156,2^\circ \text{ S}$ . Indiy va uning qotishmalari yarimo'tkazgichlar texnikasida qo'llaniladi

**INFRAQIZIL NURLANISH** - to'lqin uzunliklari  $1-2 \text{ mm} = 0,74 \mu\text{m}$  oraliqda bo'lgan, oddiy ko'zga ko'rinxmaydigan elektromagnitik nurlanish

**INFRAQIZIL SPEKTROSKOPIYA** - spektrning infraqizil sohasidagi spektrning chiqishini, yutilishini va sochilishini hosil qilishni, tadqiq qilish va qo'llashni o'z ichiga oluvchi optik spektroskopiya bo'limi

**INJEKSIYA** - 1) zaryadlangan zarralar dastasini tezlatgichga kiritish; 2) elektrik maydon ta'sirida nomuvozanat zaryad tashuvchilarining yarimo'tkazgichga kirishi

**INJEKSIYA ENERGIYASI** - zarralarning tezlatgichga kirish oldidagi energiyasi

**INJEKSIYA LAZERI** - to'ldirilganlik inversiyasini hosil qilish uchun elektron-kovak o'tish orqali zaryad tashuvchilar purkalishidan foydalilanidigan qattiq jism lazer

**INJEKSIYA TOKI** - tezlatgichga kiritiluvchi zaryadlangan zarralar dastasi toki

**INJEKTOR** - frans. *injecteur*, lot. *injectio* - tashlayman - tezlatgichga yoki jamlagichga kiritiladigan zaryadlangan zarralar dastasini hosil qiluvchi va ularga dastlabki tezlanish berishga mo'ljalangan qurilma

**INTEGRAL DOZA** - nurlantirilayotgan jism tomonidan yutilgan ionlovchi nurlanishning umumiyligi miqdori

**INTEGRAL SXEMA** - hamma (yoki bir jism) elementlari o'zaro uzviy bog'langan va elektrik jihatdan ulangan, binobarin, bir butun qurilma sifatida qaraladigan mikrotuzilma

**INVERS BAND QILINGANLIK** - lot. *inversio* – o'rin almashtirish - muvozanatsiz holatda zarralar(atomlar, molekulalar va h.k.)ning aksariyati yuqori energiyali vaziyatda bo'lishi

**INVERS QATLAM** - odatda, sirt yaqinida, sirtiy holatlarning elektrik maydoni yoki tashqi elektrik maydon mavjud bo'lishi bilan bog'liq hamda, yarimo'tkazgich hajmidagi elektrik o'tkazuvchanlik turi boshqa tur elektrik o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan yarimo'tkazgich sirti yaqinidagi qatlam

**ION** - *yunon. ion – horayotgan* - atom va molekula elektron yo'qtoganda yoki qo'shib olganda hosil bo'lувчи elektrik zaryadlangan zarra

**ION BILAN URISH** - ionlarning hajmiy va sirtiy sochilishiga, turlicha kondensatlangan muhitlardan zaryadlangan va betaraf zarralarning emissiyaga, keng takroriylik spektrida elektromagnitik nurlanish chiqarishiga, qattiq jism hajmida va uning sirtida nuqsonlar hosil qilish kabi turli radiatsiyaviy jarayonlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lувчи hodisa

**ION BOG'LANISH** - ionlar orasidagi elektrstatik o'zaro ta'sir taqozo qiladigan kimyoviy bog'lanish

**ION DASTA** - musbat (bir yoki ko'p zaryadli) yoki manfiy ionlarning odatda oqim uzunligiga nisbatan kichik ko'ndalang o'Ichovli va zarralari tartibsiz issiqlik tezligidan ancha katta tezlik bilan harakatlanuvchi yo'-nalgan oqimi

**IONLAR IMPLANTATSIYASI** - qattiq jism sirtini ionlar bilan urish orqali uning ichiga turg'un atomlar kiritish

**ION KRISTALL** - kristall panjarasi tugunlarida musbat va manfiy ionlar joylashgan kristall

**ION YARIMO'TKAZGICH** - molekulalarining uyg'onish asosiy polosasi va qo'shni polosasi orasidagi energiyaviy oralig'i elektrolitik dissotsiatsiyalash energiyasidan ko'ra katta bo'lgan modda

**ION YEDIRISH** - ionlar bilan urganda (bombardimon qilganda) qattiq jism sirtidan moddalarning ajralib chiqishi

**ION O'TKAZUVCHANLIK** - kristall panjarada ionlar ko'chishi tufayli moddada zaryadlarning uzlusiz ko'chishi

**IONLANISH** - gaz atomi yoki molekulasidan bir yoki bir necha elektronning ajralishi

**IONLANI 1 ENERGIYASI** - dastlab oddiy holatda turgan atom yoki molekulani ionlash uchun zarur bo'lgan eng kichik energiya

**IONLANISH ISHI** - elektronni atom yoki molekuladan uning atom yoki molekula bilan o'zaro ta'sirini nazarga olmasa bo'ladijan masofaga uzoqlashtirishda sarflanadigan energiya

**IONLANISH KARRALIGI** - ion elektrik zar dinning elektron zaryadiga nisbati

**IONSIZLASH** - modda egallagan hajmdan erkin zaryad tashuvchilarning yo'qolishi

**ISSIQLIK ELEKTRIK YARIMO'TKAZGICH ASBOB** - issiqlik kattaliklarini elektrik kattaliklarga va aksincha aylantirish uchun mo'ljallangan yarimo'tkazgich asbob

**ISSIQLIK O'TKAZUVCHANLIK KOEFFITSIENTI** - issiqlik oqimi zichligi bilan uni vujudga keltirgan moddadagi temperatura gradienti orasidagi mutanosiblik koeffitsienti

**ISSIQLIK O'TKAZUVCHANLIK** - jismning ko'proq qizigan qismlaridan kamroq qizigan qismlariga issiqlikning yo'nalган ko'chishi; ularning temperaturasini tenglashtirishga olib keladi

**ISSIQLIK SHOVQINI** - yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning issiqlik harakatidan kelib chiqadigan elektrik fluktuatsiyalar

**IZOELEKTRON QATOR** - birday elektronlar soniga ega bo'lgan turli kimyoviy elementlarning atomlari va ionlardan tuzilgan qator

**IZOMORLIK** - *yunon. isos - birday, teng va morphe - shakl, ko'rinish* - o'xshash kimyoviy formulaga va bir xil kimyoviy bog'lanishlarga ega moddalarning atom-kristall tuzilishi bilan uning kristallari tashqi yoqlarining to'la o'xshashligi

**IZOTROP JISM** - barcha yo'nalishlarda xossalari birday bo'lgan jism

**IZOTROP MUHIT** - barcha tanlangan yo'nalishlarda fizikaviy xossalari birday bo'lgan modda

**IZOTROPLIK** - barcha yo'nalishlarda muhit fizikaviy xossalaring birdayligi

**ICHKI FOTOSAMARA** - kondensatsiyalangan muhitlarda yutilgan elektronnagritik nurlanish ta'sirida elektronlar energiyaviy spektrining o'zgarishi

**ICHKI KRISTALL MAYDONI** - kristall ichidagi atom(ion)ga panjara va kirishmalar tomonidan ta'sir qiluvchi elektrik maydon

**JISM** - o'chovlari tizimni tashkil qiluvchi molekulalar orasidagi masofadan ko'p martta ortiq bo'lgan mikroskopik tizim

**JOUL** - *SI* da ish, energiya va issiqlik miqdori birligi; 1 N ga teng kuchning qo'yilish nuqtasini shu kuchning ta'sir yo'nalishida 1 m ga siljitimishda bajaradigan ishiga teng

**JOYLASHUV NUQSONI** - kubsimon hajmiy markazlashgan kristallardagi yoki geksagonal o'ta zinch joylashuvli kristallardagi atom tekisliklari holatlari muntazam almashinuvining buzilishi

**JOZEFSON KONTAKTI** - ikki o'tao'tkazgichni ajratuvchi yupqa dielektrik qatlardan o'tao'tkazuvchanlik tokining oqishi

**JOZEFSON SAMARASI** - o'tao'tkazuvchanlik tokining ikki o'tao'tkazgichni bo'lib turuvchi yupqa dielektrik qatlami bo'yicha oqishi

**KAMBAG'ALLASHGAN QATLAM** - potensial to'siq borligi tufayli asosiy zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi ionlashgan donorlar va akseptorlar konsentrasiyalari ayirmasidan kam bo'ladijan yarimo'tkazgich qatlam

**KANAL** - ko'ndalang kesimini o'zgartirish usuli bilan yarimo'tkazgich asbob orqali asosiy zaryad tashuvchilar oqimi boshqariladigan soha

**KANALLI TRANZISTOR** - asosiy zaryad tashuvchilar oqimi boshqariladigan tranzistor

**KATOD** - tok manbaining manfiy qutbi yoki asbobning tok manbai manfiy qutbiga ulanadigan elektrod

**KELDISH-FRANS SAMARASI** - muayyan kuchlanganlikka ega magnitik maydonga joylashtirilgan yarimo'tkazgichni yoritganda elektrik maydonning vujudga kelishi

**KELTIRILGAN MASSA** - ikki moddiy nuqtadan iborat ikkilangan tizimning nisbiy harakati uchun nuqtalar massalari ko'paytmasining ularning yig'indisiga nisbati

**KELBIN (K)** - suvning uchlanma nuqtasi termodinamika temperaturasining  $1/273$ ,  $16$  qismiga teng bo'lgan *SI* dagi temperatura birligi ( $1\text{ K} = 1^\circ\text{S}$ )

**KELBIN TEMPERATURA SHKALASI** - temperatura birligi sifatida Kelvin tanlab olingen termodinamik temperatura shkalasi

**KELBIN SHKALASI** - termodinamik temperatura shkalasining ko'pincha qo'llaniladigan nomi

**KENOTRON** - *yunion. kenos - ho'sh va tron* - o'zgaruvchan tokni to'g'rilashda ishlatiladigan ikki elektroldi vakuum lampa

**KERMA** - *i. gl. - moddada ajralgan kinetik energiya* - neytronlar, rentgen nurlari va gamma-kvantlar hosil qilgan barcha zarralar

boshlang'ich to'la kinetik energiyalarining ularni nurlantirayotgan modda massasiga nisbati

**KESKIN O'TISH** - kirishma konsentratsiyas. "zgarishi sohasi kengligidan ancha kichik bo'lган o'tish

**KIKOIN-NOSKOV SAMARASI** - muayyan kuchlanganlikka ega magnitik maydonga joylashtirilgan yarimo'tkazgichni yoritganda elektrik maydonning vujudga kelishi

**KIMYOVIY BOG'LANISH** - molekulaning turli atomlariga oid elektronlarning umumlashuvi natijasida vujudga keluvchi bog'lanish

**KIMYOVIY ELEMENT** - birday tartib nomeriga ega, lekin atom yadrolarining massasi bir-biridan farq qilishi mumkin bo'lган atomlar majmui

**KIRISHMALAR SATHI** - kirishma paydo qilgan mahalliy sath "akseptor sath", "donor sath", "tutqich sath" va boshqa nom bilan farqlanuvchi sathlar

**KIRISHMALAR ZONASI** - bir xildagi kirishma sathlari to'plami hosil qilgan va to'la yoki qisman taqiqlangan sohada joylashgan energiyaviy soha

**KIRISHMAVIY ELEKTRIK O'TKAZUVCHANLIK** - yarimo'tkazgichning donor va (yoki) akseptor kirishmalar atomlarining ionlanishi tufayli (har qanday uyg'otish usulida) mavjud bo'ladigan elektrik o'tkazuvchanligi

**KIRISHMAVIY SATHLAR** - yarimo'tkazgichning taqiqlangan zonasida joylashgan hamda kirishmalar, tuzilish nuqsonlari mavjudligi bilan bog'liq elektrik o'tkazuvchanlik

**KIRISHMAVIY YARIMO'TKAZGICH** - donor va (yoki) akseptor kirishmasiga ega bo'lган yarimo'tkazgich

**KLASTER** - bir-biri bilan zaif bog'langan ko'p sonli atomlar yoki molekulalar tizimi

**KOGEZIYA** - *lot. cohaesus* - *bog'langan* - jism qismlarining orasidagi kimyoviy bog'lanishlar sababli birlashib, eng katta mustahkamlilikli bir butun bo'lib tutinishi

**KOLLEKTOR ELEKTRODI** - yarimo'tkazgich asbobning kollektor sohasi bilan elektrik bog'lanishini ta'minlaydigan elektrod

**KOLLEKTOR** - *lot. collector* - yig'uvchi - elektrik vakuum asboblarda elektron yoki ion dastasi olib kelgan zaryadlarni yig'ishga xizmat qiluvchi elektron

**KOLLEKTOR O'TISHI** - kollektor va baza sohalari orasidagi o'tish

**KOLLEKTOR SOHASI** - yarimo'tkazgich asbobning zaryad tashuvchilarini baza sohasidan ekstraksiya qilish (chiqarish) uchun mo'ljallangan soha

**KOMPENSATSIYALANGAN SOHA** - kompensatsiyalangan yarimo'tkazgich xossalariiga ega bo'lgan yarimo'tkazgich sohasi

**KOMPENSATSIYALANGAN YARIMO'TKAZGICH** - bir vaqtida ham donorlarga, ham akseptorlarga ega bo'lgan yarimo'tkazgich

**KONSENTRATSIYA** - *lot. concentratio – to 'rlash* – aralashmaning ma'lum tashkil etuvchilari nisbiy miqdorini tavsiflovchi kattalik

**KONTAKT KUCHLANISHLARI** - deformatsiyalanuvchi jism larning tegishish sirtlarida yuzaga keluvchi mexanik kuchlanishlar

**KONTAKT POTENSIALLARI AYIRMASI** - elektrik kontaktda bo'lgan ikki jism uchun elektronning chiqish ishlari ayirmasi

**KONTAKTDAGI HODISALAR** - metallar yoki yarimo'tkazgichlar kontaktida vujudga keladigan potensial to'siq

**KONTAKTLI TO'G'RILAGICH** - xossalari metall va yarimo'tkazgich orasidagi kontakt xossalariiga bog'liq bo'lgan, tokni bir yo'nalishda o'tkazadigan elektron qurilma

**KONVERSIYAVIY O'TISH** - yarimo'tkazgichdan qo'shni sohaga (u metall yoki yarimo'tkazgich bo'lishi mumkin) kirishmaning teskarri diffuziyasi natijasida yuzaga kelgan diffuziyaviy o'tish

**KORPUSKULYAR-ELEKTRIK YARIMO'TKAZGICH ASBOB** - yuqori energiyali zarralar ta'sirida yarimo'tkazgichning elektrik xossalari o'zgarishidan foydalanish asosida ishlaydigan yarimo'tkazgich asbob

**KOVAK** - yarimo'tkazgichning valent sohasida elektron band qilmagan energiyaviy holat

**KOVAK ELEKTRIK O'TKAZUVCHANLIK** - yarimo'tkazgichning asosan o'tkazuvchanlik kovaklari ko'chishidan kelib chiqadigan elektrik o'tkazuvchanligi

**KOVAK YARIMO'TKAZGICH** - asosiy zaryad tashuvchilari kovaklardan iborat yarimo'tkazgich

**KOVAK-KOVAK O'TISH** - p-tur yarimo'tkazgichning turli solishtirma elektrik o'tkazuvchanlikli ikki sohasi orasidagi o'tish

**KOVAKLAR SOHASI** - yarimo'tkazgichda kovak elektrik o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan soha

**KOVAKLARNING DIRAK NAZARIYASI** - relyativistik kvant nazariyasining qiyinchiliklarini bartaraf qilish uchun F. Dirak tomonidan taklif qilingan elektronning fizikaviy vakuum modeli

**KOVALENT BOG'LANISH** - bir molekulyar orbitani egallagan, qarama-qarshi yo'nalishli spinlarga ega bo'lgan juftlanmagan elektronlarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan kimyoviy bog'lanish

**KOVALENT KRISTALLAR** - kovalent kimyoviy atomlararo bog'lanishli kristallar

#### **KREMNIY - q. SILITSIY**

**KRIOELEKTRON ASBOBLAR** - past temperaturalarda (shartli  $T < -100$  K) o'tadigan hodisa va jarayonlardan foydalilanildigan elektron qurilmalar

**KRIOSTAT** - *yunon. kryos - sovuq va statos -- turg'un, harakatsiz* - past temperaturalarda saqlab turadigan termostat

**KRISTALL** - *yunon. krystallos - muz* - uch o'lchovli davriy atom yoki molekulyar tuzilishiga va muvozanat tuziish holatlari to'g'ri simmetrik ko'p yoqli shaklga ega bo'lgan qattiq jism

**KRISTALL AKUSTIKASI** - tovush to'lqinlarining kristallarda tarqalish xususiyatlarini o'rghanuvchi akustika bo'limi

**KRISTALL JISM** - tuzilishi uzoq tartib mavjudligi bilan avsiflanuvchi qattiq jism

**KRISTALL PANJARA** - atomlar, ionlar va molekulalarning fazoda davriy takrorlanishi bilan tavsiflanadigan va qattiq jismlarga xos joylashishi

**KRISTALL PANJARA DAVRI** - kristalda parallel atom tekisliklari orasidagi eng kichik masofa

**KRISTALL PANJARA ENERGIYASI** - kristallni tashkil qilgan zarralarning bir-biridan cheksiz uzoqlashtirish uchun bajarish lozim bo'lgan ish

**KRISTALL PANJARA TUGUNI** - atom yoki ionning kristall panjarada muntazam joylashish o'mi

**KRISTALL TEKSTURA** - polikristallarda kristall donalarning imtiyozli yo'nalganligi

**KRISTALL TUZILMA** - atomlar, ionlar, molekulalarning kristalda joylashuvi

**KRISTALL TUZILMA BAZASI** - kristall tuzilmaning simmetrik mustaqil sohalaridagi atomlar markazlari koordinatalarining to'la majmui

**KRISTALL UYUSHMALAR** - kristall panjara bir-biriga nisbatan biroz farqli joylashgan monokristall sohalari

**KRISTALLANISH MARKAZI** - suyuqlikning kristallanish boshlanishiga olib keluvchi zarra

**KRISTALLANISH** - bug'lar, eritmalar, qotishmalaridan qattiq holatidagi (amorf yoki b. kristall holatidagi) elektrolizda elektrolitlar, shuningdek, kimyoviy reaksiyalarda kristallarning hosil bo'lishi

**KRISTALLANISH TEMPERATURASI** - suyuq holatdan kristall holatga fazaviy o'tish yuz beradigan temperatura

**KRISTALLAR** - tashkil qiluvchi zarralari tartiblangan, davriy joylashgan qattiq moddalar

**KRISTALLAR FIZIKASI** - qattiq jism fizikasining kristallarning fizikaviy xossalari, shuningdek, kristallarning xossalari va tuzilishiga tashqi kuchlar ta'sirini o'rGANADIGAN bo'limi

**KRISTALLAR SIMMETRIYASI** - kristallarning buralishda, qaytishda, parallel ko'chishda yoki bu amallarning kombinatsiyasida o'z-o'ziga mosligining saqlanishi

**KRISTALLAR SPEKTRI** - kristall holatdagi modda bilan yorug'likning o'zaro ta'sirida yuzaga keluvchi va to'lqin uzunliklarining optik diapazonida joylashgan yutish, qaytish, lyuminessensiya, fotootkazuvchanlik va yorug'likning kombinatsiyaviy sochilishi spektrlari

**KRISTALLAR SPEKTROSKOPIYASI** - kristallarning xossalari va tuzilishi haqidagi ma'lumotlar olish uchun ularning turli xil optik spektrlari o'rganiladigan spektroskopiya bo'limi

**KRISTALLARDAGI BOSH KESIM** - 1) bir o'qli kristallarda muayyan yorug'lik nuri va optik o'q orqali o'tuvchi tekislik; 2) ikki o'qli kristallarda bir-birini kesib o'tuvchi optik o'qlar orqali o'tuvchi tekislik

**KRISTALLARDAGI NUQSONLAR** - kristall tuzilishidagi nuqsonlar, kristall panjara tugunlarida zarralar (atomlar, molekulalar, ionlar) qat'iy davriy joylashishining buzilishi

**KRISTALLITLAR** - aniq qirralarga ega bo'lmagan mayda kristallar

**KRISTALL-KIMYOVIY RADIUS** - atom va ionlarning kristallarda atomlararo masofalarni baholash imkonini beruvchi tavsifi

**KRISTALLNING BOSH TEKISLIGI** - kristallning optik o'qidan va kristall ichidan yuruvchi yorug'lik to'lqini fazaviy tezligi yo'nalishidan o'tuvchi tekislik

**KRISTALLNING OPTIK O'QI** - kristallda yorug'lik ikkilanma sinishiga uchramasqan tarqaladigan yo'nalish

**KRISTALLOGRAFIK INDEKSLAR** - fazoda kristall yoqlarining va atom tekisliklarining joylashuvini (Miller indekslari), shuningdek,

kristallografik o'qlarga nisbatan kristall qirralarining yo'nalishini (Veys indekslari) aniqlovchi uchta butun son

**KRISTALLOGRAFIYA** - kristallar va yunon. gr. *χρυσός* - *yozaman* - kristallarning tuzilishi haqidagi fan

**KRONIG-PENNI MODELI** - kristallarda energiyaviy zonalarning vujudga kelishi tabiatini talqin qilib beruvchi, elektronlarning davriy maydonlardagi harakatining bir o'chovli, aniq yechiladigan modeli

**KUCHLI LEGIRLANGAN YARIMO'TKAZGICH** - juda katta konseentratsiyali kirishmalar(yoki kristall panjaraning tuzilmaviy nuqsonlari)ga ega bo'lib, qo'shni kirishma atomlar orasidagi masofalarning kichikligidan ular yaqinida joylashgan elektronlarning kuch maydonlari va to'lqin funksiyalari bir-birini yopadigan yarimo'tkazgich

**KUCHLI O'ZARO TA'SIR** - bir nechta fermometrдан kichik masofalarda adronlar orasidagi o'zaro ta'sir; xususan, atom yadrolaridagi nuklonlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlaydi

**KVANT DIFFUZIYA** - zarralar va nuqtaviy nuqsonlar(vakansiyalar, kirishmaviy va tugunlararo atomlar)ning qattiq jismlardagi to'siq osti kogerent tunnel o'tishlari bilan bog'liq diffuziyasi

**KVANT ELEKTRONIKA** - majburiy nurlanishga yoki nurlanishning modda bilan nochizig'iy o'zaro ta'siriga asoslanib, elektrmagnitik tebranishlar va to'lqinlarni kuchaytirish, generatsiyalash va takroriyligini o'zgartirish usullarini tadqiq qilishni o'z ichiga oluvchi fizika sohasi

**KVANT GENERATOR** - majburiy nurlanishlar hodisasi asosida elektrmagnitik to'lqinlar ishlab chiqaruvchi manba; ular qatoriga lazer va mazerlar kiradi

**KVANT HOLAT** - o'zaro ta'sirlanuvchi zarralar tizimining mumkin bo'lgan diskret turg'un holatlaridan biri

**KVANT NUQSON** - atomdagи elektron energiyasining xidrogensimon atomdagи o'shanday kvant sonli elektron energiyasidan farqini tavsiylovchi kattalik

**KVANT O'TISH** - kvant tizim(atom, molekula va b.)ning bir holatdan boshqasiga sakrashsimon o'tishi

**KVAZIBARQAROR JARAYON** - tizimda jarayon tarqalayotganda uning ichidagi holat o'zgarishga ulgurmaydigan hol

**KYURI** - (Ku, Cu) - radiofaol manbada nuklid faolligi(izotop faolligi)ning tizimdan tashqari birligi.  $1\text{ Ku}=3,700 \times 10^{10}\text{ Bk}$  (*Bekkerel*)

**KYURI QONUNI** - paramagnetiklar magnitik qabulchanligining temperaturaga bog'liqligi

**KYURI TAMOYILI** - kristall tashqi tazyiq ostida o'zining nuqtaviy simmetriyasining faqat tazyiq simmetriyasi elementlari bilan umumiy bo'lgan simmetriya elementlarinigina saqlab qoladigan qilib o'zgartirishidan iborat jarayon

**KYURI TEMPERATURASI** - 1) ikkinchi jins fazaviy o'tish temperaturasining umumiy nomi; 2) ferromagnetikning paramagnetikka fazaviy o'tish temperaturasi; 3) segnetelektriklarda o'z-o'zidan qutblanish yo'qoladigan temperatura

**KO'NDALANG GALVANOMAGNITIK SAMARA** - yarimo'tkazgichdan muayyan zichlikli tok o'tayotganda va unga induksiyaviy ko'ndalang magnitik maydon ta'sir qilganida, elektronlar yoki kovaklar tezliklari tarqoqligi oqibatida ko'ndalang temperaturaviy gradientning vujudga kelishi

**KO'PAYTIRUVCHI YARIMO'TKAZGICH DIOD** - o'tayuqori takroriylikli signal takroriyligini ko'paytirish uchun foydalilaniladigan o'zgartiruvchi yarimo'tkazgich diod

**KO'CHKI RAZRYAD** - gazdag ionlanishda yuzaga keluvchi elektronlar kelgusida o'zlarini navbatdagi ionlanishlarni vujudga keltiradigan elektrik razryad

**KO'CHKI TRANZISTOR** - kollektor o'tishida tokning ko'chkisimon ko'payishi maromida ishlashga mo'ljallangan tranzistor

**KO'CHKI-UCHUV DIODI** - elektrik o'tishga teskari kuchlanish berilganda zaryad tashuvchilarning ko'chkisimon ko'payishi maromida ishlovchi va o'tayuqori takroriylikli tebranishlar generatsiyalash uchun foydalilaniladigan manfiy differentsiyal qarshilikka ega yarimo'tkazgich diod

**LAMPA** - 1) yorug'lik manbai; 2) elektrik vakuum asbob

**LAMPALI GENERATOR** - elektron lampalardan foydalilaniladigan elektrmagnitik to'lqinlar manbai

**LAZER** - *ing. LASER - Light Amplification by Stimulated Emission of Radiation* - "majburiy nurlanish tufayli yorug'likning kuchayishi" so'zlarining bosh harflaridan - optik rezonatorda joylashgan faol muhitning majburiy nurlanishi natijasida kogerent elektromagnitik to'lqinlar chiqaruvchi kvant generatori

**LYUMINESSENSIYA** - *lot. lumen - yorug'lik va escent - zaif ta'sirni ifodalovchi suffiks* - jismrlarning birday temperaturada issiqlik nurlanishi ustiga qo'shimcha va yorug'lik tebranishlari davridan ancha ortiq vaqt davom etadigan yorug'lik nurlanishi

**LYUMINESSENSIYA MARKAZI** - lyuminoforming yorug'lanishiga sabab bo'lувчи kristall panjara nuqsoni

**MAGNETIK** - moddalarning magnitik xossalari qaralayotganida ishlataladigan atama

**MAGNITOELEKTRIK YARIMO'TKAZGICH ASBOB** - magnitik kattaliklarni elektrik kattaliklarga aylantiruvchi yarimo'tkazgich asbob

**MAGNITIK ANIZOTROPLIK** - jism magnitik xossalarining turli yo'nalishlarda birday bo'lmashligi

**MAGNITIK QABULCHANLIK** - magnitikning magnitik maydonda magnitlanish qobiliyatini ko'rsatuvchi tavsifi. Magnitik qabulchanlik ham ijobjiy, ham salbiy bo'lishi mumkin. *Diamagnetiklar* salbiy hisoblanadi: ular magnitik maydonga qarshi yo'nalishda magnitlanadi. *Paramagnetiklar* va *ferromagnetiklar* ijobjiy: ular maydon yo'nalishida magnitlanadi

**MAGNITIK DIELEKTRIK** - dielektrik bilan yaxlit massaga uyushgan ferromagnitik zarralaridan tashkil topgan magnitik material

**MAGNITIK OPTIKA** - magnitik maydon ta'sirida moddaning optik xossalari o'zgarishlarini o'r ganuvchi optika bo'limi

**MAGNITIK YARIMO'TKAZGICH** - tarkibiga past temperaturalarda tartiblangan magnitik tuzilishlar hosil qiluvchi o'tuvchan yoki noyob yer elementlari kiritilgan yarimo'tkazgich material

**MAGNITOQARSHILIK SAMARA** - yarimo'tkazgich elektrik qarshiligining magnitik maydon ta'sirida o'zgarishi

**MAHALLIY SATH** - nuqsonlar konsentrasiyasi kichik bo'lganda panjara nuqsoni yarimo'tkazgichning taqiqlangan zonasida hosil qiladigan energiyaviy sath

**MAJBURIY O'TISH** - kvant tizimning tashqi nurlanish ta'siri ostida yuqoriroq energiyali sathdan pastroq energiyali sathga o'tishi

**MAJI-RIGI-LEDYUK SAMARASI** - magnitik maydon ta'sirida o'tkazuvchanligining o'zgarishi; italiyalik fiziklar J. Maji, A. Rigi va ularidan mustaqil ravishda fransuz olimi S.A. Ledyuk kashf etган

**MAKROMOLEKULA** - *yunon. macros* - *katta va lot. moles* - *massa* - o'zaro kimyo viy ko'p sonli atomlar majmui

**MANBA** - tranzistor kanaliga asosiy zaryad tashuvchilarni kiritadigan elektrod

**MANFIY MUTLAQ TEMPERATURA** - kvant tizimining energiya sathlari invers band qilinganlik holi uchun Bolsman taqsimotidan hisoblab topilgan mutlaq temperatura

**MASSA** - *lot. massa* - *harfiy* - *bo'lak* - materiyaning inertlik va tortishish xossalari belgilovchi asosiy tavsiflaridan biri

**MASSAVIY SON** - atom yadrosidagi nuklonlarning yig'indi soni

**MASS-SPEKTROMETR** - moddaning ionlashgan zarralarini massalari bo'yicha ajratish asbobi; ishlashi vakuumda uchayotgan ionlar dastasiga elektrik va magnitik maydonlarning ta'siriga asoslanadi

**MASS-SPEKTROSKOPIYA** - modda ionlari massasining yoki ionlar massasining ularning zaryadiga nisbatini aniqlash yo'li bilan moddani tadqiq qilish usuli

**MAYDONIY TRANZISTOR** - yopqich va manba orasiga kuchlanish berilganda vujudga keladigan elektrik maydon yordamida kanal orqali o'tayotgan tokni boshqaruvchi asbob

**M-D-YA STRUKTURA (TUZILMA)** - (metall-dielektrik-yarimo'tkazgich struktura) yarimo'tkazgich plastinka, dielektrik qatlam va metall elektroddan tashkil topgan elektrik kondensator

**MESSBAUER SAMARASI** - qattiq jismarda bog'langan atom yadroslari tomonidan gamma-kvantlarning chiqarilishi yoki yutilishi; bunda jismning ichki energiyasi o'zgarmaydi, ya'nii fononlar chiqarilmaydi va yutilmaydi

**MESSBAUER SPEKTROSKOPIYASI** - atom yadroarinining ularni qurshovchi muhit tomonidan hosil qilingan elektrik va magnitik maydonlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganish usuli; Messbauer samarasidan foydalanishga asoslangan

**METALL BOG'LANISH** - metall xossal moddalarda atomlarning musbat ionlar bilan elektron gaz o'zaro ta'siri paydo qiladigan kimyoviy bog'lanish

**METALLAR** - *yunon. metallon - shaxta, ruda, kon - odatdag'i sharoitlarda yuqori elektrik va issiqlik o'tkazuvchanlikka, elektrik o'tkazuvchanlikning manfiy temperaturaviy koefitsiyentiga, elektromagnitik to'lqinlarni yaxshi qaytarish qobiliyatiga (yaltiroqlik va shaffofqlik), plastiklik kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan oddiy moddalar*

**METALLOGRAFIK MIKROSKOP (ZARRABIN)** - turli sirtlarni qaytuvchi yorug'likda kuzatish optik asbobi

**MEZA STRUKTURA** - elektrik o'tishlarning kichraygan yuzalari va baza sohasi nosaol qism hajmi bilan tavsiflanadigan muayyan geometrik shaklli struktura

**MIKRO** - *yunon. mikros - kichik - boshlang'ich birlikning milliondan bir qisriiga teng ulush birligining nomini yasash uchun fizikaviy kattalik birligi nomi oldiga qo'yiladigan qo'shimcha ibora*

**MIKROELEKTRONIKA** - elektron qurilmalarni mikromitti yig'ma ko'rinishda yaratish muammolarini qamrab tigan elektronika sohasi

**MIKROKUCHLANISHLAR** - tashqi kuchiar yo'qligida kristallarda yaxlit kristall hajmiga nisbatan kichik hajmlardagi muvozanatlangan ichki kuchlanishlar

**MIKROPAYVAND O'TISH** - oldindan yarimo'tkazgich sirtiga surtilgan metall yoki qotishma qatlaming yarimo'tkazgich ichiga kichik chuqurlikka eritib kiritish natijasida hosil bo'lgan payvand o'tish

**MIKROQATTIQLIK** - material mikrotuzilishi alohida qismlarining qattiqligi

**MIKROTUZILISH** - *yunon. micros - kichik va lot. structura - tuzilish* - moddaning zarrabin (optik yoki elektron) yordamida aniqlanuvchi tuzilishi

**MIKROTUZILMA** - tuzilma egallagan  $1 \text{ sm}^3$  hajmda beshtadan kam bo'lmagan elementlar joylashgan ekvivalent montaj zichligiga ega bo'lgan va konstruktiv yaxlit deb sanaladigan mikroelektron asbob

**MILLI** - *lot. mille - ming* - boshlang'ich birlikning' mingdan bir qismiga teng ulush birligining nomini yasash uchun fizikaviy kattalik birligi nomi oldiga qo'yiladigan qo'shimcha

**MODDA** - xozirgi zamon fizikasi tassavurlariga ko'ra, kvarklar va leptonlar kabi asosiy zarralardan tashkil topgan materiya turi

**MODDA TUZILISHI** - modda makroskopik va mikroskopik tuzilishi tavsiflarining yig'ma nomi

**MOL** - *SI* da modda miqdorining 12 gramm karbon-12 ( $^{12}\text{C}$ ) izotopida nechta atom bo'lsa, shuncha tarkibiy elementlar(atomlar, molekulalar va sh.o.)ga ega bo'lgan modda miqdoriga teng birligi

**MOLEKULA** - *lot. moles - massa* - muayyan moddaning eng kichik, kimyoiy xossalari saqlagan turg'un zarriси

**MOLEKULYAR KRISTALL** - kristall panjarasining tugunlarida molekulyar joylashgan kristall

**MOLEKULYAR MASSA** - molekula massasining atom birliklarida ifodalangan qiymati

**MOLYAR HAJM** - normal sharoitlarda bir mol modda egallaydigan hajm

**MOLYAR KONSENTRATSIYA** - aralashmaning biror tashkil etuvchisi mollari sonining uning umumiy mollari soniga nisbati bilan ifodalanuvchi konsentratsiya

**MONOKRISTALLAR** - yagona kristall panjaraga ega bo'lgan yakka kristall

**MONOKRISTALL** - o'zining hutun hajmida yagona kristall panjaraga ega bo'lgan kristall

**MONOMOLEKULYAR QATLAM** - fazalarning bo'linish chegarasida qalinligi bitta molekulaga teng modda qatlami

**MURAKKAB YARIMO'TKAZGICH** - asosiy tarkibi ikki yoki undan ortiq kimyoviy elementlar atomlaridan tashkil topgan yarimo'tkazgich

**MUTLAQ DIELEKTRIK QABULCHANLIK** - dielektrikning elektrik maydonda qutblanish xossasining tavsiflovchi va qutblanganlik kattaligining elektrik maydon kuchlanganligi kataligiga nisbatiga teng bo'lgan skalyar kattalik

**MUTLAQ DIELEKTRIK SINGDIRUVCHANLIK** - dielektrikning elektrik xossalarni tavsiflovchi va elektrik siljish kattaligining elektrik maydon kuchlanganligi kattaligiga nisbatiga teng bo'lgan skalyar kattalik

**MUTLAQ TEMPERATURA** - termodinamik temperatura shkalasida kelvinlarda ifodalanuvchi temperatura

**MUVOZANAT** - fizikaviy tizimning o'zgarmas tashqi ta'sirlarda istalgancha uzoq muddat bo'la oladigan holati

**MUVOZANAT HOLATI** - tashqi sharoit doimiy bo'lganda termodinamik parametrlarning doimiyligi, tizimga keluvchi modda issiqlik oqimining yo'qligi bilan tavsiflanuvchi tizim holati

**MUVOZANATLI JARAYON** - barcha oraliq holatlari muvozanatli bo'lgan jarayon

**MUVOZANATSIZ HOLAT** - muvozanatda bo'lmagan tizim holati

**MUVOZANATSIZ ZARYAD TASHUVCHILAR** - termodinamik muvozanatda bo'lmagan (konsentrasiyasi bo'yicha ham, energiyaviy taqsimoti bo'yicha ham) o'tkazuvchanlik elektronlari yoki kovaklari

**MUVOZANATSIZ ZARYAD TASHUVCHILARNING BAZADA JAMG'ARILISHI** - yarimo'tkazgich asbob bazasida, purkashning va (yoki) baza qalinligining ortishi natijasida, muvozanatsiz zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi va zaryad miqdorining ortishi

**MUVOZANATSIZ ZARYAD TASHUVCHILARNING BIQUTBIY DIFFUZIYASI** - muvozanatsiz elektronlar va kovaklarning diffuziya koefitsientlari har xil bo'lganligi oqibatida vujudga keladigan elektrik maydon va bu zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi gradientlari ta'siri ostida ularning birgalikda ko'payishi

**MUVOZANATSIZ ZARYAD TASHUVCHILARNING DAYISH UZUNLIGI** - muvozanatsiz zaryad tashuvchilarining ularning rekombinatsiyasiga qadar elektrik maydon ta'sirida ko'chishi o'rtacha uzunligi

**MUVOZANATSIZ ZARYAD TASHUVCHILARNING HAJMIY YASHASH VAQTI** - muvozanatsiz zaryad tashuvchilar ortiqcha konsentratsiyasining bu konsentratsiyaning hajmdagi rekombinatsiya oqibatida o'zgarishi tezligiga nisbati

**MUVOZANATSIZ ZARYAD TASHUVCHILARNING SAMARAVIY YASHASH VAQTI** - muvozanatsiz zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining, ham hajmdagi, ham sirdagi rekombinasiya oqibatida kamayishi tezligini tavsiflovchi kattalik

**MUVOZANATSIZ ZARYAD TASHUVCHILARNING SIRTIY YASHASH VAQTI** - yarimo'tkazgich hajmidagi muvozanatsiz zaryad tashuvchilar ortiqcha miqdorining ularning sirtiga tomon yo'nalgan umumiyligi oqimiga nisbati

**NERNST-ETTIGSXAUZEN SAMARASI** - qattiq o'tkazgichlarda temperatura gradienti hamda o'tkazgichda tik magnitik maydon mavjudligida elektrik maydonning yuzaga kelishi

**NOASOSIY ZARYAD TASHUVCHILAR** - mazkur yarimo'tkazgichda asosiy zaryad tashuvchilar konsentratsiyasidan nisbatan kam konsentratsiyali harakatchan zaryad tashuvchilar:  $p$ -tur yarimo'tkazgichdagi elektronlar,  $n$ -tur yarimo'tkazgichdagi kovaklar

**NOASOSIY ZARYAD TASHUVCHILARNING DAYDISH UZUNLIGI** - noasosiy zaryad tashuvchilarning rekombinatsiya sodir bo'lgunicha o'tgan vaqtida elektrik maydon tomonidan ko'chirilishining o'rtacha uzunligi

**NOASOSIY ZARYAD TASHUVCHILARNING DAYDISHI** - rekombinatsiya yuz berguncha o'tgan vaqtida elektrik maydon ta'sirida noasosiy zaryad tashuvchilarning ko'chishi

**NOBARQAROR HOLAT** - parametrlari qiymatining taqsimoti vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadigan tizim

**NOBIRJINS MUHIT** - muayyan fizikaviy xossalari koordinatalarga bog'liq bo'lgan muhit

**NOQUTBIY DIELEKTRIK** - molekulalari tashqi elektrik maydon bo'limganda nolga teng bo'lgan elektrik momentga ega modda

**n - TUR YARIMO'TKAZGICH** - elektron o'tkazuvchanlikka ega yarimo'tkazgich

**NUQTAVIY DIOD** - nuqtaviy o'tishli yarimo'tkazgich diod

**NUQTAVIY KONTAKT** - nuqtaviy o'tish xossalariiga ega bo'lgan kontakt

**NUQTAVIY TRANZISTOR** - nuqtaviy o'tishlarga ega bo'lgan tranzistor

**NUQTAVIY O'TISH** - o'tish va uning atrof sohasidagi fizik jarayonlarni aniqlovchi tavsifiy uzunlikka nisbatan barcha o'lchamlari kichik bo'lgan o'tish

**NURLANISHSIZ O'TISH** - kvant tizim (atom, molekula va b.) energiyaviy sathlarining biridan ikkinchisiga, foton chiqarish, yutilish yoki sochilish bo'lmagan holda o'tish

**OM** - elektrik qarshilikning  $SI$  dagi birligi; o'tkazgich orqali  $1A$  tok oqayotganda uning uchlari orasidagi  $1\text{ V}$  kuchlanish bo'lgan holdagi qarshilik  $1\text{ Om}$  bo'ladı

**OMIK KONTAKT** - qo'shni sohalardan tok o'tishida ma'lum me'yorda Om qonunidan muhim chetlanishlar bo'lmaydigan kontakt

**OMIK QIZISH** - o'tkazgichning o'zidan o'tayotgan elektrik tok ta'sirida qizish

**OPTIK ANIZOTROPLIK** - muhitda optik nurlanish(yorug'lik)-ning tarqalish yo'nalishiga va qutblanishiga bog'liq tarzda muhit optik xossalaring turlicha bo'lishi

**OPTIK KONTAKT** - sirtlari yaxshilab silliqlangan ikki qattiq jism sirtlarini bir-biriga yorug'lik to'lqin uzunligidan ancha kichik masofagacha yaqinlashtirib joylashtirish

**OPTIK SILLIQ SIRT** - sirt bo'y lab yorug'likning to'lqin uzunligicha masofaga o'tilganda uning egrilik radiusi to'lqin uzunlikka nisbatan kichikroq o'zgaradigan sirt

**OPTOELEKTRONIKA** - elektronikaning elektrik signallarni optik signallarga va optik signallarni elektrik signallarga aylantirish masalalari bilan shug'ullanadigan sohasi

**OPTRON** - optik ravishda bog'langan yorug'lik manbai va qabul qilgichdan tarkib topgan, elektrik va optik signallarni kuchaytirish va aylantirishni amalga oshiradigan asbob

**OPTRONIKA** - barcha elektrik qurilmalarni optik qurilmalar bilan almashtirishdan iborat elektronika sohasi

**ORGANIK YARIMO'TKAZGICHLAR** - elektron yoki kovak o'tkazuvchanlikka (yoki tashqi ta'sir ostida shunday xususiyatlar oladigan) va elektrik o'tkazuvchanlikning temperaturaviy musbat koefitsientiga ega bo'lgan qattiq orga ik moddalar

**PANJARA NUQSONI** - kristall panjarasi davri qining buzilishi (masalan, dislokatsiya, kristall chegarasi, tugunlar, usida ortiqcha atomning borligi, yot element atomining mavjudligi va h.k.)

**PANJARANING KIRISHMAVIY NUQSONI** - yarimo'tkazgichda yot element atomi hosil qilgan panjara nuqsoni

**PANJARANING STEXIOMETRİK NUQSONI** - murakkab yarimo'tkazgichda atomlarning stexiometrik tarkibga nisbatan ortiqchaligi (yoki kamchiligi) vujudga keltilgan panjara nuqsoni

**PANJARAVIY ISSIQLIK SIG'IMI** - metallarning kristall panjara orqali yuz beruvchi issiqlik sig'imi

**PANJARAVIY ISSIQLIK O'TKAZUVCHANLIK** - metallarning kristall panjara orqali yuz beruvchi issiqlik o'tkazuvchanligi

**PARAKRISTALL** - kristall va amorf sohalari navbatlashib joylashgan molekulalar kristall

**PARAMAGNETIK** - paramagnetizm xossasini oshkor qiluvchi modda

**PARAMAGNETIZM** - *yunon. para - yonma-yon va magnetism* - agar tashqi magnitik maydon bo'limganda modda tartiblangan magnitik tuzilishiga ega bo'lmasa, tashqi magnitik maydonga joylashtirilgan jismning shu maydon yo'nalishiga mos tushuvchi magnitlanish xossasi

**PARAMETRIK YARIMO'TKAZGICH DIOD** - parametrik kuchaytirgichlarda o'tayuqori takroriyliklar oralig'ida qo'llanishi mo'ljalangan varikap

**PARDAVIY INTEGRAL MIKROTUZILMA** - elementlari dielektrik material sirtiga o'tkazilgan pardalar ko'rinishida yaratilgan integral mikrotuzilma

**PARMA QOIDASI** - muayyan elektrik tokka mos keluvchi magnitik maydon induksiya chiziqlarining yo'nalishini aniqlash qoidasi

**PAULI PARAMAGNETIZMI** - metallar va yarimo'tkazgichlar ning o'z elektronlarining spin magnitik momentlari bilan bog'liq paramagnetizmi

**PAYNOV (STOK)** - kanalli tranzistorning asosiy zaryad tashuvchilar oqib keladigan elektrodi

**PAYVAND O'TISH** - yarimo'tkazgichga metall yoki donor va (yoki) akseptor kirishmalarga ega bo'lgan qotishma payvandlash (va so'ng kristallanish) natijasida hosil bo'lgan o'tish

**PELTE ELEKTROTERMIK SAMARASI** - turlicha ikki yarimo'tkazgich yoki yarimo'tkazgich va metall kontaktida shu kontakt orqali tok o'tib turganda issiqlik ajralishi yoki yutilishi

## **PELTE HODISASI - q. PELTE ELEKTROTERMİK SAMARASI**

**P'EZOELEKTRIK MATERİALLAR** - p'ezoelektrik xossalari yaqqol ifodalangan, p'ezoelektrik o'zgartirgichlar tayyorlashda qo'llaniladigan moddalar

**P'EZOELEKTRİK SAMARA** - ba'zi kristallar qayishganda ularda elektrik zaryadlarning vujudga kelishi

**P'EZOYARIMO'TKAZGICH** - bir vaqtida ham yarimo'tkazgich, ham p'ezoelektrik xossalarga ega bo'lgan modda

**P'EZOOGARTIRGICH** - p'ezoelektrik samara tufayli mexanik tebranishlarni elektrik tebranishlarga aylantirib beruvchi qurilma

**PITRAVIY SAMARA** - elektrik vakuumda va yarimo'tkazgichlarda katoddan elektronlar emissiyasining yoki yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar purkalishining notekisligi vujudga keltirgan tok fluktuatsiyalari

**PLANAR O'TISH** - yarimo'tkazgich sirtiga yotqizilgan ixotalovchi pardadagi tirqish orqali kirishmaning diffuziyasi natijasida hosil bo'lgan diffuziyaviy o'tish

**PLAZMAVIY DIOD** - plazma katodli diod

**PLAZMAVIY KATOD** - yordamchi razryad plazmasi yoki asosiy razryad uchun elektronlar emitteri vazifasini bajaruvchi maxsus shakl(uchlik yoki uchliklar to'plami)li katoddagi plazma qatlami

**p-n O'TISHNING ELEKTRİK TESHILISHI** - p-n o'tishning ko'chki yoki tunnel mexanizmi tufayli vujudga keladigan teshilishi

**p-n O'TISHNING ISSIQLIKDAN TESHILUVI** - p-n o'tishning issiqlik maromi barqarorligi yo'qolishi tufayli kelib chiqadigan p-n o'tishning teshilishi

**p-n O'TISHNING KO'CHKILI TESHILUVI** - kuchsiz legirlangan yarimo'tkazgichlar hosil qilgan, yopuvchi qatlami kengligi yetarlicha katta bo'lgan o'tishlarda yuz beradigan elektrik teshilish

**p-n O'TISHNING TESHILISHI** - teskari kuchlanish ma'lum chegaraviy qiymatgacha oshirilganda p-n o'tishdan oqayotgan teskari tokning keskin oshib ketish hodisisi

**p-n O'TISHNING TUNNEL TESHILISHI** - yupqa elektronkovak (bir necha mikrometr tarkibidagi) o'tishlarda ularga  $10^6$  V/sm chamasidagi kuchlanganlikli kuchli teskari maydon ta'sir qilganda vujudga keladigan teshilish

**p-n STRUKTURA** - bir-biri bilan chegaradosh p- va n-sohalardan iborat struktura

**POLIKRISTALLAR** - ko'p kristallit(dona)lard tashkil topgan qattiq jismlar

**POLIMORF O'TISH** - moddaning hiror kristall modifikatsiyasidan boshqasiga fazaviy o'tishi

**POLIMORF O'TISH TEMPERATURASI** - moddaning bir kristall tuzilish holatdan boshqasiga o'zgarmas bosimda muvozanatiy fazaviy o'tish temperaturasi

**PROTON** - musbat elektrik zaryadga ega bo'lgan, barionlar guruhiiga oid va atom yadrosi tarkibiga kiradigan barqaror elementar zarra

**p-TUR YARIMO'TKAZGICH** - kovak o'tkazuvchanlikka ega yarimo'tkazgich

**QALIN PARDALI INTEGRAL MIKROTUZILMA** - pardalari qalinligi 1 μm dan ortiq bo'lgan pardali integral mikrotuzilma

**QATTIQ JISM** - moddaning agregat holati; turg'un shaklga hamda uni tashkil qilgan atomlarning o'z muvozanat holatlari atrofida kichik tebranishlar tarzidagi issiqqlik harakatiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi

**QATTIQ JISMLI LAZER** - faol ihmishi qattiq jismidan iborat lazer

**QAYISHISH** - jism (yoki uning muayyan qismi) shakli yoki o'lchamlarining o'zgarishi; u jism zarralari nishiy joylashishini o'zgartiruvchi tashqi kuchlar, isitish yoki sovitish, namlik o'zgarishi va hokazo sabablar ta'sirida vujudga keladi

**QAYTA KRISTALLANISH** - bitta fazaning kamroq takomil donalari hisobiga polikristallning strukturaviy yanada takomilroq donalari hosil bo'lishi jarayoni

**QAYTA ULAsh SAMARASI** - kuchlanganligi hiror bo'sag'aviy qiymatdan oshganda elektrik maydon ta'sirida yarimo'tkazgichning katta qarshilikli holatdan kichik qarshilikli holatga sakrashsimon qaytuvchan o'tishi

**QAYTA ULovchi YARIMO'TKAZGICH DIOD** - o'tayuqori takroriylikli quvvat me'yorini boshqaruvchi qurilmalarda qo'llash uchun mo'ljallangan yarimo'tkazgich diod

**QISMA KONTAKT** - metallni yarimo'tkazgichga yoki boshqa metallga qisib qo'yish yo'li bilan hosil qilingan kontakt

**QORONG'ILIK TOKI** - yoritilmagan fotoelementdagi tok

**QUDRATLI TO'RILAGICH YARIMO'TKAZGICH DIOD** - qudratli elektrtexnik qurilmalarda qo'llanishga mo'ljallangan to'g'rilaqich yarimo'tkazgich diod

**QUTBIY DIELEKTRIK** - molekulalari tashqi elektrik maydon bo'lmaganda ham noldan farqli elektrik momentga ega bo'lgan modda

**QUTBLANGANLIK** - dielektrikning elektrik qutblanishi darajasini tavsiflovchi va uning biror hajmi elektrik momentining shu hajmga u nolga intilgan holdagi nishbati limitiga teng bo'lgan vektor kattalik

**RADIATSIYAVIY MATERIALSHUNOSLIK** - yadroviy nurlanishlar ta'siriga bardoshli materiallar yaratish. materiallarni dozalab nurlash orqali ularga kerakli xossalalar berish usullari majmui

**RADIATSIYAVIY NUQSON** - qattiq jismning zarralar oqimi yoki gamma nurlanish va rentgen nurlari bilan nurlaganda uning kristall tuzilishining buzilishi

**REKOMBINATSIIYA** - ionlanish hodisasiga teskari, ya'ni qarama-qarshi ishorali erkin zaryad tashuvchilarning ular to'qnashganida g'oyib bo'lish hodisasi

**REKOMBINATSIIYA KOEFFITSIENTI** - ionsizlanish tezligining rekombinatsiyalanuvchi ionlar konsentratsiyalari ko'paytmasiga nisbati

**REKOMBINATSIIYAVIY TUTQICH** - o'tkazuvchanlik zonasidan elektronni va valent zonasidan kovakni tutib olib, ularning rekombinatsiyasini yuzaga keltiradigan tutqich

**REKOMBINATSIIYAVIY YORUG'LANISH** - tashqi manbaning energiyasini yutish jarayonida ajratilgan zaryadli zarralarning qayta rekombinatsiyalanishida vujudga keladigan elektrmagnetik nurlanish

**RELAKSATSIYA** - mikroskopik fizikaviy tizim termodinamik muvozanatining tiklanishi jarayoni

**RELAKSATSIYA VAQTI** - tizim holati hivor parametrining uning muvozanatdagi qiymatidan chetlanishining e martta kamayishi uchun ketadigan vaqt

**RELAKSATSIYAVIY KONTAKT** - yaqinida rekombinatsiya tezligi yuqori bo'lganligi tufayli zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi faqat termodinamik muvozanat holati bilan aniqlanadigan kontakt

**RELAKSATSIYAVIY YO'QOTISHLAR** - relaksatsiyaviy qutblanish tufayli dielektrik yo'qotishlar

**RENTGEN MIKROTAHLIL** - moddani elektronlarning ingichka dastasi bilan urganda unda uyg'ongan hos rentgen nurlanishni qayd qilishga asoslangan mahalliy kimyoviy tahlil usuli

**RENTGENTUZILMAVIY TAHLIL** - modda tuzilmasini rentgen nurlari difraksiyasiga asoslanib tadqiq qilish usuli

**RIGI-LEDYUK SAMARASI** - temperaturalar farqiga ega bo'lgan o'tkazgich issiqlik oqimiga tik doimiy magnetik maydonga joylashtirilganc oirlamchi issiqlik oqimiga va maydonga tik yo'nalishda ikkilamchi temperaturalar farqining yuzaga kelishi

**RUXSAT ETILGAN ZONA** - atomlar kristali. a'shkil etganda yakka atomlarning bir yoki bir necha energiyaviy sathla parchalanishi natijasida hosil bo'lgan energiyaviy zona yoki bir necha ustma-ust tushgan energiyaviy zonalar to'plami

**RUXSAT ETILGAN O'TISH** - tizimning simmetriya xossalariga zid kelmaydigan o'tish

**SAKROVCHAN O'TKAZUVCHANLIK** - qattiq jismlar elektrik o'tkazuvchanligining fazoda mahalliyashgan elektronlarning bir holatdan ikkinchisiga "sakrab o'tishi" bilan bog'liq bo'lgan mexanizmi

**SAMARADOR MASSA** - kvazizarraning dinamik xossalarini tafsiflovchi, massa o'lchamligidagi kattalik

**SAMARAVIY KESIM** - ikki to'qnashuvchi zarraning o'zaro ta'sirida muayyan yakuniy holatning yuzaga kelish ehtimolligini ifodalovchchi kattalik

**SAMARAVIY ZARYAD** - tutash muhitlar elektrodinamikasida ekranlangan zaryad monandi

**SATH KENGLIGI** - kvant tizimining muayyan sathdagi eng katta yashash vaqt bilan bog'langan diskret energiya sathidagi energiya noaniqligi

**SATH QISMI** - kvant tizimiga elektrik yoki magnitik maydonlarning ta'siri natijasida parchalangan asosiy energiya sathining qismlaridan biri

**SATHDA BEIXTIYOR YASHASH** - o'z-o'zidan nurlanish bilan belgilanuvchi sathdagi yashash vaqt

**SATHDA YASHASH VAQTI** - tizimning berilgan sathda yashash vaqtining e marttagacha kamayishi uchun ketadigan vaqt

**SATHLAR SILJISHI** - xidrogen atom va xidrogensimon atomlar energiya sathlari nozik tuzilmasining relyativistik kvant mexanikaning Dirak tenglamasiga asoslangan bashoratidan biroz chetlashuvi

**SATHNING BAND QILINGANLIGI** - moddaning muayyan energiya sathida, ya'ni ma'lum energetik holatda joylashgan zarralari konsentratsiyasi

**SATHNING JUFTLIGI** - fizikaviy tizimning muayyan energiya sathiga mos kelgan holatlari

**SATHNING KENGLIGI** - muayyan holat energiyasining Plank doimiysi kattaligining shu sathda yashash vaqtiga nisbatli bilan aniqlanuvchi noaniqlik

**SEGNET YARIMO'TKAZGICHALAR** - segnetoelektrik xossalariga ega bo'lgan yarimo'tkazgichlar

**SEGNETOELEKTRIK** - o'z-o'zidan qutblanish qobiliyatiga ega va tashqi elektrik maydon ta'sir qilganda qutblanish yo'nalishini o'zgartirishi mumkin bo'lgan dielektrik

**SEGNETOELEKTRIK DOMENLAR** - segnetoelektriklardagi bir jinsli, o'z-o'zidan elektrik qutblangan sohalar

**SEGNETOELEKTRIK GISTEREZIS** - segnetoelektrik qutblanishning siklik o'zgaruvchi tashqi elektrik maydonga bir qiyatlimas sirtmoqsimon bog'lanishi

**SELEKTIV QABUL QILGICH** - reaksiyasi unga ta'sir qilayotgan yorug'likning umumiy energiyasi yoki quvvatigagina emas, balki uning spektral tarkibiga ham bog'liq bo'lgan nurlanish qabul qilgichi

**SELEKTIV QAYTARISH** - spektr bo'yicha o'zgaruvchan qaytarish koefitsientiga ega bo'lgan moddaning yorug'likni qaytarish

**SELSIY TEMPERATURA SHKALASI** - normal bosimda muzning erish temperaturasi  $0^{\circ}$ , suvning qaynash temperaturasi esa  $100^{\circ}$  deb olinadigan temperatura shkalasi

**SEZGIRLIK** - o'chagich asbobning xossasi; asbob chiqishidagi signal(mas., ko'rsatgichning asbob shkalasidagi ko'chishi)ning uning o'zgarishini yuzaga keltingan o'lchanadigan kattalikka nisbati bilan ifodalaniadi

**SHOTTKI SAMARASI** - elektronlarni tezlatuvchi tashqi elektrik maydon ta'sirida qattiq jismalardan elektronlar chiqishining kamayishi

**SHOTTKI TO'SIG'I** - metall bilan chegaradosh yarimo'tkazgich qatlamida vujudga keluvchi potensial to'siq

**SHREDINGER TENGЛАMASI** - norelyativistik kvant mexanikasining asosiy tenglamasi; yechimlari kvant tizim holatini vaqt davomida o'zgarishini ifodalaydigan to'lqin funksiyalardan iborat

**SHUBNIKOV-de XAAZ SAMARASI** - monokristall o'tkazgichlar elektrik qarshiligining past temperaturalarda kuzatiladigan teskari magnitik maydon( $H^{-1}$ )ga ossillyatsiyalanuvchi bog'liqligi

**SILITSIY (Si)** - atom raqami 14, atom massasi 28,086 bo'lgan kimyoiy element. Qoramtil-kulrang, metallga xos yaltiroq kristall modda, zichligi  $2330 \text{ kg/m}^3$ , erish temperaturasi  $1417^{\circ}\text{S}$ . Yarimo'tkazgich asboblar ishlab chiqarishda ishlataladi

**SILLIQ O'TISH** - kirishma konsentratsiyasining silliq o'zgarish sohasi kengligi fazoviy zaryad sohasi kengligi bilan taqqoslanarli bo'lgan o'tish

**SIMENS, Cm, S** - elektrik o'tkazuvchanlikning s. agi birligi; 1 Sm ning qarshiligi 1 Om bo'lgan o'tkazgichning elektrik o'tkazuvchanligiga teng

**SIMMETRIK TIRISTOR** - volt-amper tavsifnomaning to'g'ri va teskari tarmoqlarida manfiy qarshilikka ega bo'lgan besh qatlam tuzilishli uch elektroqli tiristor

**SIMMETRIK TRANZISTOR** - ularish tuzilmasida emitter va kollektor elektroqlari chiqishlari o'rni almashtirilganda ham elektrik tavsifnomalari o'zgarmaydigan tranzistor

**SIQILISH** - bo'ylama o'qi bo'yicha yo'nalgan kuch ta'sirida jism uzunligining qisqarishi

**SIQILUVCHANLIK** - moddaning har tomonlama bosim ta'sirida o'z hajmini o'zgartirish qobiliyati

**SIRQISH TOKI** - vaqt davomida o'zgarmaydigan elektrik kuchlanish ta'sirida izolyatordan o'tadigan tok

**SIRTIY HODISALAR** - jism sirt qatlami erkin energiyasining ortiqligi, uning tuzilishi va tarkibiy xususiyatlari bilan bog'liq hodisalar

**SIRTIY HOLATLAR** - qattiq jismning vakuum bilan yoki boshqa muhit bilan chegarasida vujudga keluvchi zaryad tashuvchilarning energiya satlari

**SIRTIY SATH** - kristall davriyligining sirda buzilishi yoki sirda kirishma borligi sababli hosil bo'lgan mahalliy sath

**SIRTIY ZONA** - kristallning sirtiy satlari tashkil qilgan ruxsat etilgan zona

**SIRTIY-TO'SIG'YI O'TISH** - yarimo'tkazgich sirtiga elektrolitik cho'ktirish yoki boshqa usul bilan metall o'tkazilganda paydo bo'lgan invers qatlam hosil qilgan o'tish

**SODDA YARIMO'TKAZGICH** - asosiy tarkibi birlina kimyoiy element atomlaridan tashkil topgan yarimo'tkazgich

**SOLISHTIRMA DIELEKTRIK YO'QOTISHLAR** - dielektrik hajmidagi dielektrik yo'qotishlar taqsimotini tavsiflovchi hamda dielektrikning biror hajmidagi dielektrik yo'qotishlarning shu hajmga nisbatiga teng bo'lgan skalar kattalik

**SOLISHTIRMA TERMOELEKTRIK YURITUVCHI KUCH** - termoelektrik yurituvchi kuchning ikkita turli yarimo'tkazgichlar yoki yarimo'tkazgich va metall kontaktlari temperaturalari ayirmasiga nisbati

**SORBSIYA** - *lot. sorbeo – yutaman* - suyuq yoki qattiq jism(sorbent)larning atrof-muhitdan suyuq modda yoki gaz (sorbat) yutishi

**SPEKTROMETR** - spektir va yunon. metroo - o'chayman - 1) bitor fizikaviy kattalikning qandaydir parametr bo'yicha taqsimot funksiyasini o'chash asbobi; 2) optik spektrlarni nurlanishning fotoelektrik qabul qilgichlari yordamida o'chash asbobi

**SPEKTROSKOPIYA** - elektrmagnitik nurlanish spektrlarini o'rganishga bag'ishlangan fizika bo'limi

**SPEYSISTOR** - teskari kuchlanish berilgan o'tishning kambag'allashgan qatlamiga emitterdan zaryad tashuvchilar purka!adigan tranzistor

**STABILITRON** - elektrik teshiluv sohasida kuchlanishi tokka kuchsiz bog'liq bo'lgan va kuchlanishni barqarorlashtirish uchun foydalilaniladigan yarimo'tkazgich diod

**STABISTOR** - barqarorlash sohasi sifatida volt-amper tavsifnomasining to'g'ri tarmog'i xizmat qiladigan yarimo'tkazgich stabilitron

**SUYUQ DIELEKTRIKLAR** - elektrik o'tkazuvchanligi  $\sigma \leq 10^{-8}$  cm $^{-1}$  bo'lgan, molekulalardagi elektronlar kovalent bog'langan, molekulalar orasida esa Van-der-Vaals kuchlari mavjud bo'lgan molekulyar suyuqliklar

**SUYUQ KRİSTALLAR** - qattiq kristall va suyuqlik oralig'idagi tuzilish xossalariiga ega bo'lgan ba'zi moddalarining turg'un xolatlari

**TAQIQLANGAN ZONA** - hayoliy kristalldagi elektron ega bo'lishi mumkin bo'limgan energiya qiymatlari sohasi

**TASHQI FOTOSAMARA** - elektronlarning nurlanayotgan moddadan tashqariga chiqishidan iborat bo'lgan fotosamara

**TEKSTURA** - lot. - gazlama, bog'lanish, tuzilish - modda xossalaring mehanik, issiqlik, magnetik yoki elektrik ta'sirlar ostida shakllanish jarayonida yuzaga keluvchi anizotropiya

**TEMPERATURA** - termodinamik tizimning muvozanat holatini tavsiflovchi hamda tizimni tashkil qilgan zarralarning tartibsiz harakati o'rtacha kinetik energiyasiga mutanosib fizikaviy kattalik

**TENZOELEKTRIK YARIMO'TKAZGICH ASBOB** - mehanik qayishishlarni elektrik kattaliklarga aylantirish uchun mo'ljallangan yarimo'tkazgich asbob

**TENZOREZISTIV SAMARA** - mehanikaviy qayishish ta'sirida yarimo'tkazgich elektrik qarshiligining o'zgarishi

**TENZOR** - lot. tensus - kuchlangan, tarang - jadval ko'rinishida joylashtiriladigar son qiymatlari to'plami bilan belgilanuvchi va bir

koordinatalar tiziidan boshqasiga o'tishda maxsus qo'llar bo'yicha o'zgartiriluvchi fizikaviy kattalik

**TERMISTOR** - yarimo'tkazgich elektrik qarshiligining temperaturaga bog'lanishidan foydalanib, atrof-muhit temperaturasi o'zgarishini qayd qilishga mo'ljallangan issiqlik-elektrik yarimo'tkazgich asbob

**TERMODESORBSIYA** - jismni qizdirish yo'li bilan uning sirtiga adsorblangan (yutilgan) atomlar va molekulalarni undan ajratib chiqarish

**TERMODIFFUZIYA** - temperatura gradienti ta'sirida gaz yoki suyuqliklar aralashmalari tashkiliy qismlarining ko'chirilishi

**TERMODINAMIK MUTLAQ TEMPERATURA** - termodinamik temperatura shkalasining mutlaq nolidan boshlab sanaladigan temperatura

**TERMOELEKTRIK HODISALAR** - temperatura gradienti mavjudligida metallar va yarimo'tkazgichlarda yuzaga keluvchi elektrik hodisalar

**TERMOELEKTRIK SAMARA** - ketma-ket ulangan turli yarimo'tkazgichlar yoki yarimo'tkazgich va metalldan iborat elektrik zanjirda kontaktlar temperaturasi har xil bo'lganda elektrik yurituvchi kuchning vujudga kelishi

**TERMOELEKTRIK YURITUVCHI KUCH** - termoelektrik samarada vujudga keladigan elektrik yurituvchi kuch

**TERMOGALVANOMAGNITIK HODISALAR** - qattiq o'tkazgichlarning elektrik va issiqlik o'tkazuvchanligiga magnitik maydonning ta'siri bilan bog'liq hodisalar

**TERMOGALVANOMAGNITIK SAMARA** - bo'ylama temperatura gradienti va ko'ndalang magnitik maydon induksiyasi mavjud bo'lgan holda yarimo'tkazgichda ko'ndalang elektrik maydon kuchlanganligining vujudga kelishi

**TERMOJUFT** - ishlashi termik-elektrik yurituvchi kuchning vujudga kelishiga asoslangan temperatura qayd qilgichi

**TERMOMAGNITIK SAMARA** - bo'ylama temperatura gradienti va ko'ndalang magnitik maydon induksiyasi ta'sir qilganda yarimo'tkazgichda ko'ndalang temperatura gradientining vujudga kelishi

**TERMOMETR** - yunon. therme - issiqlik va metro - o'lchayman - jismlar temperaturasini o'lchash ashobi

**TERMOREZISTOR (TERMOQARSHILIK)** - faol elektrik qarshiligi temperaturaga bog'liq bo'lgan yarimo'tkazgich qarshilik

**TESKARI PANJARA** - muayyan kristall panjaraga xos, tugunlari orasidagi masofa kristall panjaraning tegishli tugunlari orasidagi masofalarga teskari mutanosib bo'lgan nuqtaviy uch o'lchovli panjara

**TESKARILANGAN DIOD** - teskari kuchlanish berilganda tokning o'tishi tunnel mexanizmi bilan, to'g'ri kuchlanish berilganda esa, faqat purkash jarayonlari bilan aniqlanadigan, aynigan yarimo'tkazgich asosida tayyorlangan yarimo'tkazgich diod

**TESLAMETR** - noferromagnitik muhitdagi magnitik induksiyani yoki magnitik maydon kuchlanganligini o'lchovchi magnitometr

**TIRISTOR** - to'rt qatlamlili  $p-n-p-n$  tuzilmaga ega bo'lgan yarimo'tkazgich asbob, uning uchta  $p-n$  o'tishi va bir boshqaruvchi chiqish elektrodi bor. Bu elektroda elektrik signal berilganda asbob yopiq holatdan to'g'ri yo'nalishdagi ochiq holatga o'tadi, asbob to'g'ri yo'nalishda ikkita turg'un holatlari tavsifnomaga va teskari yo'nalishda yopuvchi xossalarga ega

**TIRQISHSIZ YARIMO'TKAZGICHALAR** - taqilangan zonasining kengligi aynan nolga teng bo'lgan yarimo'tkazgichlar

**TOK TO'G'RILAGICHI** - o'zgaruvchan tokni o'zgarmas tokka aylantiruvchi qurilma

**TOMSON ELEKTROTERMİK SAMARASI** - bir jinsli yarimo'tkazgichdan ma'lum bir zinchlikli tok o'tib turganda va bo'ylama temperatura gradienti mavjud bo'lganda Jouli issiqligidan boshqa issiqlik ajralishi yoki yutilishi

**TOMSON HODISASI** - q. **TOMSON ELEKTROTERMİK SAMARASI**

**TO'LGAN ZONA** - mutlaq nol temperaturada barcha energiya sathlari elektronlar bilan band qilingan ruxsat etilgan zona

**TO'RT QATLAMLI DIOD** -  $p-n-p-n$  yoki  $n-p-n-p$  tuzilmali va volt-amper tavsifnomasida manfiy differensial qarshilik sohasi bo'lgan tranzistor

**TO'G'RILOVCHI KONTAKT** - elektrik qarshiligi bir yo'nalishda boshqa yo'nalishdagidan katta bo'lgan kontakt

**TO'G'RILOVCHI YARIMO'TKAZGICH DIOD** - o'zgaruvchan tokni to'g'rilashga mo'ljallangan yarimo'tkazgich diod

**TO'G'RILOVCHI YARIMO'TKAZGICH USTUN** - ketma-ket ulangan va ikki chiqishli yagona konstruksiyaga yig'ilgan to'g'rilovchi yarimo'tkazgich diodlar to'plami

**TO'G'RILOVCHI YARIMO'TKAZGICH BLOK** - ma'lum elektrik sxema bo'yicha ulagan va ikkidan ortiq chiqishli yagona konstruksiya yig'ilgan to'g'rilovchi yarimo'tkazgich diodlar to'plami

**TO'SIG'IM SIG'IM** - p-n o'tish va metall-yarimo'tkazgich o'tishlardagi hajmiy zaryad qo'shqatlamining elektrik sig'imi

**TRANSLYATSIYA** - *lot. translatio - uzatish, ko'chirish - ob'ektni fazoda o'ziga-o'zini parallel saqlagan holda translyatsiya o'qi deb ataluvchi chiziq bo'yicha biror masofaga ko'chirish*

**TRANZISTOR** - bir yoki bit necha elektrik o'tishli, uch yoki undan ko'p chiqishlarga ega bo'lgan, quvvatni kuchaytirishga yaraydigan elektrik o'zgartirgich yarimo'tkazgich asbob

**TRIOD** - *yunon. tri - qo'shma so'zda - uch va (elektrod)* - uch elektrotdli elektron lampa yoki uch elektrotdli yarimo'tkazgich qurilma

**TUNNEL (-LANISH) SAMARA (-SI)** - zarralarning potensial to'siq ichidan o'tish hodisasi

**TUNNEL DIOD** - aynigan yarimo'tkazgich asosida tayyorlangan yarimo'tkazgich diod, unda elektron-kovak orqali zaryad tashuvchilarini ko'chirishda tunnel mexanizmidan foydalilanadi va uning tavsifnomalarida manfiy differensial qarshilik sohasi mavjud

**TUTASHISH SAMARASI** - berilgan o'tish fazoviy zaryad sohasining kengayishi oqibatida boshqa o'tishning fazoviy zaryad sohasi bilan tutashib ketishi

**TUTQICH** - termodinamik muvozanat holatida odatda betaraf va birday ishorali harakatchan zaryad tashuvchilarini ushlab oladigan va bo'shatib yuboradigan panjara nuqsoni

**UMUMIY SIG'IM** - berilgan kuchlanish va takroriylikda diodning chiqishlari orasida o'lchangan sig'im

**UNIQUTBIY INDUKSIYA** - magnitlangan elektrik o'tkazuvchan jismni magnitlanganlik yo'nalishiga mos tushmaydigan yo'nalishda harakatlantirilganda jismda elektrik yurituvchi kuchning vujudga kelishi

**UGONGAN ATOM** - atomning asosiy holatidagiga nisbati kattaroq energiyaga ega bo'lgan holati

**UGONGAN HOLAT** - atom, molekula va boshqa kvant tizim uchun mumkin bo'lgan energiyalarning diskret qatoridan eng kichik qiymatidan kattaroq energiyali tizim holati

**UGONGAN HOLATNING DAVOMIYLIGI** - tizimning uyg'ongan holatda bo'lish vaqtisi

**UGONGAN** - tizimni turg'un muvozanat holatidan chiqarish

**UYG'OTILGAN O'TKAZUVCHANLIK** - energiyalari qo'shimcha zaryad tashuvchilar hosil qilish uchun yetarli bo'lgan zarralar (elektronlar, ionlar va b.) oqimi ta'sirida dielektrik va yarimo'tkazgichlar elektrik o'tkazuvchanligining o'zgarishi

**VAKANSION** - kvant kristallarda vakansiyaning holatini tavsiflovchi kvazizarra

**VAKANSIYA** - *lot. vacans - bo'sh - erkin kristall panjara tugunida atom yoki ion yo'qligidan iborat kristall nuqsoni*

**VAKUUM** - *lot. vacuum - bo'shliq - atmosfera bosimidan anchagina past bosimli gaz holati*

**VAKUUM NASOS (SO'RG'ICH)** - vakuum hosil qilish maqsadida gazlar va bug'larni yopiq hajmdan so'rib chiqarish qurilmasi

**VALENT ELEKTRONLAR** - atomning tashqi elektronlari

**VALENT SOHA** - mutlaq nol temperaturada valent elektronlarga to'liq to'ldirilgan kristalldagi elektronlarning mumkin bo'lgan energiya qiymatlari sohasi

**VANE-MOTT EKSITONI** - yarimo'tkazgichlarda toksiz uyg'otishlarda yuzaga keluvchi, elektron kovak jufti hosil bo'lishi bilan bog'liq kvazizarra

**VARIKAP** - elektron usulda boshqariladigan sig'imiy kondensator sifatida qo'llanadigan yarimo'tkazgich diod

**VARISTOR** - elektrik qarshiligi kuchlanish ortishi bilan kamayadigan nochizig'i yarimo'tkazgich qarshilik

**VENTIL (KALIT DIOD)** - bir elektron-kovak o'tishli ikki qatlamli yarimo'tkazgich asbob; u to'g'ri yo'nalishda tokni o'tkazish va teskar yo'nalishda tokni yopish qobiliyatiga ega

**VENTIL FOTOSAMARA** - yarimo'tkazgichning metall yoki boshqa yarimo'tkazgich bilan kontakti yaqinida sodir bo'ladigan ichki fotosamara tufayli elektrik yurituvchi kuchning vujudga kelishi

**VIDEMAN SAMARASI** - elektrik tok o'tayotgan ferromagnit tayoqchani bo'tylama magnitik maydonga joylashtirganda unda buralish deformatsiyasining yuzaga kelishi

**VIDEMAN-FRANS QONUNI** - qattiq jismlarning elektron issiqlik o'tkazuvchanligi bilan elektrik o'tkazuvchanligini bog'lovchi munosabat

**VIGNER-ZEYS SHO'BASI** - kristallning eng ko'p ishlataladigan eng sodda elementar sho'basi

**VINTSIMON DISLOKATSIYA** - kam qiyalikli vintsimon zinapoya atomiy tekislik modeli bilan tasvirlanadigan dislokatsiya

**VOLT-AMPER TAVSIFNOMA (VAT)** - tok kuchining elektrik zanjir elementiga berilgan kuchlanishga yoki kuchlanishning elektrik zanjir elementi orqali o'tayotgan tok kuchiga bog'lanishi

**XEMILYUMINESSENSIYA** - kimyoviy reaksiyada yuzaga keluvchi lyuminessensiya

**XEMILYUMINESSENT TAHLIL** - modda tarkibini xemilyuminessensiya bo'yicha miqdoriy (ba'zan sifatiy) tahlil usullari majmui

**XEMOSORBSIYA** - kimyoviy birikmalar hosil bo'lishi bilan birga sodir bo'lувчи adsorbsiya

**XIDROGENSIMON ATOM** - yadro va tashqi elektron qobig'ida bitta elektronga ega bo'lgan atom

**XOLL KOEFFITSIENTI (R)** -  $\tilde{E} = R[\tilde{j}\tilde{B}]$  munosabatidagi mutanosiblik koeffitsienti; bunda  $\tilde{E}$  - ko'ndalang elektrik maydon kuchlanganligi,  $\tilde{j}$  - tok zichligi,  $\tilde{B}$  - magnitik induksiya

**XOLL SAMARASI** -  $\tilde{H}$  magnitik maydonda joylashgan  $\tilde{j}$  zichlikli tok oqayotgan qattiq o'tkazgichda  $\tilde{H}$  va  $\tilde{j}$  ga tik yo'nalishda elektrik maydonning vujudga kelishi

**XUSUSIY ELEKTRIK O'TKAZUVCHANLIK SOHASI** - yarimo'tkazgichning xususiy o'tkazuvchanlik xossalariiga ega bo'lgan sohasi

**XUSUSIY ELEKTRIK O'TKAZUVCHANLIK** - yarimo'tkazgichning o'tkazuvchanlik elektron - o'tkazuvchanlik kovagi juftlari generatsiyasi har qanday usulda, masalan, issiqlik, yorug'lik va hokazo usulda hosil qilinganda vujudga keladigan elektrik o'tkazuvchanlik

**XUSUSIY YARIMO'TKAZGICH** - donor va akseptor kirishmalari bo'lmagan yarimo'tkazgich

**XUSUSIY O'TKAZUVCHANLIK** - kimyoviy sof yarimo'tkazgichning elektrik o'tkazuvchanligi

**YADROVIY ELEKTRONIKA (YADRO ELEKTRONIKASI)** - zarralar detektorlaridan keluvchi axborotni qayd qiluvchi, o'zgartiruvchi va qayta ishlovchi elektron asboblardan foydalaniladigan yadro fizikasi usullari majmui

**YAQIN TARTIB** - moddaning kichik hajmlari ichida qo'shni zarralarning nisbatan tartiblangan joylashuvi

**YAQIN TARTIB O'ZARO TA'SIRLARI** - moddani tashkil qiluvchi qo'shni zarralar orasidagi o'zaro ta'sirlar

**YARIMEMIRILISH DAVRI** - radiofaol yadrolar miqdori o'rtacha ikki martta kamayadigan vaqt oralig'i

**YARIMMETALL** - atomlari kristall panjaraga va metall kristalliga nisbatan  $10^2$ - $10^3$  marta kam elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan qattiq jism

**YARIMO'TKAZGICH** - o'z solishtirma elektrik o'tkazuvchanligi bo'yicha o'tkazgich va dielektrik orasida bo'lgan va solishtirma elektrik o'tkazuvchanligining temperatura va kirishmalar konsentratsiyasiga kuchli bog'lanishi bilan o'tkazgichdan farq qiladigan modda

**YARIMO'TKAZGICH ARALASHTIRGICH DIOD** - o'tayuqori takroriylikli signalni va geterodin signalini oraliq takroriylikli signalga aylantirish uchun foydalaniladigan o'zgartirgich yarimo'tkazgich diod

**YARIMO'TKAZGICH ASBOB ELEKTRODI** - yarimo'tkazgich asbobning muayyan sohasi bilan tegishli chiqish orasida elektrik bog'lanishni ta'minlovchi element

**YARIMO'TKAZGICH ASBOB STRUKTURASI** - elektrik o'tkazuvchanligining turi yoki solishtirma elektrik o'tkazuvchanligi kattaligi bo'yicha turli chegaradosh sohalarning yarimo'tkazgich asbob funksiyalarini bajarilishini ta'minlaydigan yarimo'tkazgich tizim

**YARIMO'TKAZGICH ASBOBLAR** - ishlashi bir jinsli va nobirjins  $p-n$  o'tishlarga, geteroo'tishlarga ega bo'lgan yarimo'tkazgichlarning xossalariiga asoslangan xilma-xil asboblarning umumiy nomi

**YARIMO'TKAZGICH ATOM ELEKTRIK ELEMENT** - elektrik energiya olish uchun mo'ljalangan korpuskulyar-elektrik yarimo'tkazgich asbob

**YARIMO'TKAZGICH BOLOMETR** - yarimo'tkazgich elektrik qarshiligining temperaturaga bog'liqligidan foydalanib, elektrmagnitik nurlanishni oshkor qilish va uning jadalligini o'lash uchun qo'llaniladigan issiqlik-elektrik yarimo'tkazgich asbob

**YARIMO'TKAZGICH DETEKTOR** - asosiy elementi yarimo'tkazgich kristalidan iborat bo'lgan zarralarni qayd qilish asbobi

**YARIMO'TKAZGICH DIOD** - elektrik o'tishga (o'tishlarga) va ikki chiqishga ega bo'lgan elektro'zgartirgich asbob

**YARIMO'TKAZGICH FOTODIOD** - elektrik o'tishga, ikkita chiqishga ega fotoelektrik yarimo'tkazgich asbob

**YARIMO'TKAZGICH FOTOELEMENT** - ishlashi fotogalvanik-samaradan foydalanishga asoslangan fotoelektrik yarimo'tkazgich asbob

**YARIMO'TKAZGICH INTEGRAL MIKROSEMMA** - elementlari yarimo'tkazgich material hajmida va (yoki) sirtida yaratilgan integral mikrosxema

**YARIMO'TKAZGICH LAZER** - yarimo'tkazgich kristall asosida yaratilgan lazer

**YARIMO'TKAZGICH MATERIALLAR** - xona ( $T \sim 300$  K) temperaturasini o'z ichiga oluvchi keng temperaturalar oralig'ida yarimo'tkazgich xossalari yaqqol namoyon qiluvchi hamda yarimo'tkazgich asboblar yasashda keng qo'llaniluvchi moddalar majmui

**YARIMO'TKAZGICH MODULLAGICH** - o'zgaruvchan signal amplitudasini modullash uchun foydalaniladigan o'zgartirgich yarimo'tkazgich asbob

**YARIMO'TKAZGICH STABILITRON** - kuchlanishi elektrik teshilish sohasida undan o'tayotgan tokka sust bog'langan yarimo'tkazgich diod

**YARIMO'TKAZGICH TENZOMETR** - qayishishlar kattaligini o'lhash uchun mo'ljallangan tenzoelektrik yarimo'tkazgich asbob

**YARIMO'TKAZGICH TERMOELEMENT** - termoelektrik samaradan yoki Pelte elektrotermik samarasidan foydalanishga asoslangan va issiqlikni bevosita elektrik energiyaga va teskariga aylantirishga mo'ljallangan yarimo'tkazgich asbob

**YARIMO'TKAZGICHDAGI TUTQICH** - zaryad tashuvchilarni ushlab qola oladigan kirishmaviy atom yoki kristall nuqsoni

**YARIMO'TKAZGICHLARNI LEGIRLASH** - yarimo'tkazgichlarning elektrik xossalari o'zgartirish maqsadida ularga kirishmalar yoki tuzilmaviy nuqsonlarni ulushlab kiritish

**YARIMO'TKAZGICHLARNING SIRTIY XOSSALARI** - yarimo'tkazgichning boshqa bir muhit bilan bo'linish chegarasi yaqinida zaryad tashuvchilar(elektronlar va kovaklar)ning o'zini qanday tutishi bilan bog'liq bo'lgan xossalari

**YARIMO'TKAZGICHNING XUSUSIY ELEKTRIK O'TKAZUVCHANLIGI TEMPERATURALARI SOHASI** - yarimo'tkazgichdagagi zaryad tashuvchilarning konseentratsiyasi zaryad tashuvchilar juftlarining termik generatsiyasi bilan aniqlanadigan va amalda panjara nuqsonlariga bog'liq bo'lmaydigan holdagi temperaturalar sohasi

**YASSI DIOD** - yassi o'tish(o'tishlar)ga ega bo'lgan yarimo'tkazgich diod

**YASSI TRANZISTOR** - yassi o'tishlarga ega bo'lgan tranzistor

**YASSI O'TISH** - yuzasini aniqlovchi chizig'iy o'lchamlari uning qalinligidan ancha katta bo'lgan o'tish

**YASHASH VAQTI** - tizimning uyg'ongan holatda mavjud bo'lishining o'ttacha vaqt

**YEMIRILISH DOIMIYSI** - atom yadrosining vaqtı birligi ichida o'z-o'zidan radiofaol yemirilish ehtimolligi

**YOPQICH** - tranzistor kanalining ko'ndalang kesimini boshqarish uchun mo'ljallangan elektrrod

**YOPUVCHI QATLAM** - turlicha elektrik o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan ikki yarimo'tkazgich (yoki yarimo'tkazgich va metall orasidagi) kambag'allashgan qatlam

**YORUG'LIK** - inson ko'zi sezadigan takroriyiliklar oralig'idagi elektrmagnitik to'lqinlar

**YORUG'LIK JADALLIGI** - 1) yorug'lik to'lqini jadalligi; 2) yorug'lik nurlanishi jadalligi

**YORUG'LIK KOGERENTLIGI** - *lat. cohaerens - aloqada bo'lishlik* - yorug'lik tebranishlarining fazoning turli nuqtalarida vaqt davomida uyg'un tarzda sodir bo'lishi holi; yorug'lik nurlarining interferensiya qobiliyatini tavsiflaydi

**YORUG'LIK KVANTI** - foton energiyasi

**YORUG'LIK MANBAI** - spektrning ko'rinvchi ultrabinafsha va infraqizil sohalarida elektrmagnitik energiya nurlangichi

**YORUG'LIK NURI** - yorug'lik energiyasi tarqaladigan chiziq

**YORUG'LIK NURLOVCHI DIOD (YORUG'DIOD)** - elektrik energiyani elektrolyuminessensiya yordamida yorug'lik nurlanishi energiyasiga aylantiruvchi yarimo'tkazgich diod

**YORUG'LIK OQIMI** - yorug'lik jadalligining ko'rish hissi hosil qilish qobiliyatini hisobga oluvchi tavsifi

**YORUG'LIK SPEKTRAL SAMARADORLIGI** - monoxromatik nurlanish yorug'lik oqimining tegishli to'la oqimga nisbati

**YORUG'LIK TO'LQINI** - o'z tarkibida uzunliklari 0,4-0,76  $\mu$ m oraliqda bo'lgan sinusoidal elektrmagnitik to'lqinlar

**YORUG'LIK TO'LQINI UZUNLIGI** - yorug'liklar tebranishining bir davri davomida monoxromatik yorug'lik to'lqinining tarqalish uzunligi

**YUPQA PARDALI INTEGRAL MIKROTUZILMA** - pardalari qalinligi 1  $\mu$ m gacha bo'lgan pardali integral mikrotuzilma

**YUQORI BOSIM** - muayyan fizikaviy hodisaga yoki aniq masalaga oid hos qiymatdan ortiq bo'lgan bosim

**YUQORI VAKUUM** - gaz molekulalarining erkin yugurish uzunligi gaz joylashgan idish o'chovlaridan ancha katta bo'lgan holatdagji vakuum

**YUQORI VOLTLI FOTO E.YU.K.** - yarimo'tkazgich yoki dielektrikning yoritilayotgan sirti bo'yicha yuzaga keluvchi hamda yoritilgan sohaning uzunligiga mutanosib g'ayritabiyy E.YU.K.

**ZARRA** - moddalarining elementar bo'lagi

**ZARRALARNI KIRITISH** - zaryadlangan zarralar dastasini tezlatgich yoki jamlagichga kiritish

**ZARRALARNING KONSENTRATSIYASI** - biror hajmdagi zarralar sonining shu hajm kattaligiga nisbati

**ZARRANING YUGURISH YO'LI** - moddada zarraning to'la to'xtaguncha o'tadigan yo'li uzunligi

**ZARYAD** - maydon manbai bo'lgan hamda shunday xususiyatlari boshqa zarralar bilan o'zaro ta'sirlashadigan fizikaviy kattalik

**ZARYAD TASHUVCHILAR** - elektrik zaryad tashuvchi va moddadan elektrik tokning o'tishini ta'minlashga qodir harakatchan zarralarning umumiyligi nomi

**ZARYAD TASHUVCHILAR DAYDISHI** - tashqi maydonlar ta'sirida zaryadlangan zarralarning xususiy harakatiga ularning nisbatan sekin sodir bo'lувчи yo'nalgan ko'chishining qo'shilishi

**ZARYAD TASHUVCHILAR DIFFUZIYASI** - zaryad tashuvchilar konsentratsiyalarining bir jinsli emasligi tufayli ular(o'tkazuvchanlik elektronlari va kovaklar)ning yarimo'tkazgichlarda ko'chishi

**ZARYAD TASHUVCHILAR EKSTRAKSIYASI** - yarimo'tkazgich sohasidan undagi noasosiy zaryad tashuvchilarni tashqi kuchlanish hosil qilgan tezlashtiruvchi elektrik maydon yordamida elektron-kovak o'tish yoki metall yarimo'tkazgich kontakti orqali kiritish

**ZARYAD TASHUVCHILAR REKOMBINATSIYASI** - o'tkazuvchanlik elektroni o'tkazuvchanlik kovagi juftining g'oyib bo'lishi

**ZARYAD TASHUVCHILARNI EKSTRAKSIYALASH** - yarimo'tkazgich sohasidan undagi noasosiy zaryad tashuvchilarni tashqi kuchlanish hosil qilgan tezlashtiruvchi elektrik maydon yordamida elektron-kovak o'tish yoki metall-yarimo'tkazgich kontakti orqali kiritish

**ZARYAD TASHUVCHILARNI GENERATSIYALASH** - issiqlik, yorug'lik, elektrik maydon, ionlovchi nurlanish va hokazo omillar ta'sirida o'tkazuvchanlik elektroni va o'tkazuvchanlik kovagi juftining vujudga kelishi

**ZARYAD TASHUVCHILARNI INJEKSIYALASH** - ortiqcha zaryad tashuvchilarning elektrik maydon ta'sirida yarimo'tkazgich yoki dielektrikka kirishi

### **ZARYAD TASHUVCHILARNING DIFFUZIYA**

**KOEFFITSIENTI** - elektrik va magnitik maydonlar bo'lmaganda bir xil harakatchan zaryad tashuvchilar oqimi zichligining ularning konsentratsiyasiga mutlaq nisbati

**ZARYAD TASHUVCHILARNING HARAKATCHANLIGI** - zaryad tashuvchilarning elektrik maydon yo'nalishida o'rtacha barqaror tezligining elektrik maydon kuchlanganligiga nisbatining mutlaq kattaligi

**ZARYAD TASHUVCHILARNING KO'CHKISIMON KO'PAYISHI** - zarbaviy ionlanish oqibatida zaryad tashuvchilar sonining ko'payishi

**ZARYAD TASHUVCHILARNING MUVOZANATIY KONSENTRATSIYASI** - yarimo'tkazgichda termodinamik muvozanat sharoitidagi harakatchan zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi

**ZARYAD TASHUVCHILARNING NOMUVOZANATIY KONSENTRATSIYASI** - yarimo'tkazgichda muvozanatsiz zaryad tashuvchilar mavjud holda harakatchan zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi

**ZARYAD TASHUVCHILARNING ORTIQCHA KONSENTRATSIYASI** - yarimo'tkazgichdagi muvozanatsiz zaryad tashuvchilar konsentrasiyasining muvozanatli zaryad tashuvchilar konsentratsiyasidan ortiqchasi

**ZARYAD TASHUVCHILARING PURKALISHI** - yarimo'tkazgich sohasiga noasosiy bo'lgan zaryad tashuvchilarni elektronkovak o'tish yoki metall-yarimo'tkazgich kontakti orqali (potensial to'siq balandligi pasayganda) kiritish

**ZARYAD TASHUVCHILARNING SAMARAVIY TUTILISH KESIMI** - zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining zaryad tashuvchilarning tutilishigacha o'tgan yo'liga ko'paytmasiga teskar kattalik

**ZARYAD TASHUVCHILARNING SIRTIY REKOMBINATSIYASI TEZLIGI** - zaryad tashuvchilarning yarimo'tkazgich sirtiga oqimining ularning sirt yaqinidagi ortiqcha konsentratsiyasiga nisbati

**ZARYAD TASHUVCHILARING SIRTOLDI KONSENTRASIYASI** - yarimo'tkazgichdagi harakatchan zaryad tashuvchilarning sirtiy potensial gradienti kichik bo'lib qoladigan masofadagi konsentratsiyasi

## **ZARYAD TASHUVCHILARNING TUTILUVI**

yarimo'tkazgichning o'tkazuvchanlik zonasidan taqiqlangan zonasidagi kirishmaviy sathga yoki kirishmaviy sathdan valent zonaga elektron o'tishi

## **ZARYAD TASHUVCHINING ERKIN YUGURISH**

**O'RTACHA MASOFASI** - zaryad tashuvchining yarimo'tkazgichda ikki ketma-ket to'qnashish orasida o'tadigan o'rtacha masofasi

**ZARYAD TASHUVCHINING OZOD BO'LISHI** - panjara nuqsonining uyg'onishi oqibatida o'tkazuvchanlik elektroni yoki kovagining vujudga kelishi

**ZARYAD TASHUVCHINING SAMARAVIY MASSASI** - erkin elektronning massasi uning harakatini tavsiflaganidek zaryad tashuvchining yarimo'tkazgichda elektrmagnitik maydon ta'siridagi harakatini tavsiflovchi va massa o'lchamligiga ega bo'lgan kattalik

**ZARYAD TASHUVCHINING TUTILISHI** - o'tkazuvchanlik elektroni yoki kovagining uning panjara nuqsonining sathiga o'tib olishi natijasida g'oyib bo'lishi

**ZARYAD ZICHLIKLARI TO'LQINLARI** - kristall panjarada ionlarning kichik davriy siljishlari bilan bog'liq bo'lgan fazoda elektron, ion va yig'indi zaryadlarning davriy qayta taqsimlanishi

**ZARYADLANGAN ZARRA** - moddaning elektrik zaryadga ega bo'lgan zarrasi

**ZARYADLANGAN ZARRA HARAKATINING TURG'UNLIGI** - zaryadlangan zarra harakatida uning muvozanat holatidan chetlashishlari yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy qiymatlardan oshmasligi xossasi

**ZARYADLANGAN ZARRALAR HARAKATI** - zarralarning fazoda maydon kuchlari ta'sirida ko'chishi

**ZARYADLANGAN ZARRALAR INJEKTORI** - zarralarning asosiy tezlatgichiga kiritishga mo'ljallangan zaryadlangan zarralarning birlamchi manbai yoki dastlabki tezlatgichi

**ZARYADLANGAN ZARRALAR JAMLAGICI** - uchrashuvchi dastali zaryadlangan zarralar tezlatgichining elementi

**ZARYADLANGAN ZARRALAR TEZLATGICI** - elektrik maydonda tezlatgich orgali yuqori energiyali zaryadlangan zarralar (elektron, proton, atom yadrosi, ion) olish qurilmasi

**ZARYADLANGAN ZARRALARNING DAYDISHI** - zaryadlangan zarralarning turli sabablar ta'sirida tartibsiz harakatiga qo'shiluvchi nisbatan sekin yo'nalgan ko'chishi

**ZARYADNING HAJMIY ZICHLIGI** - biror hajm ichidagi elektrik zaryad kattaligining shu hajm kattaligiga nisbati

**ZARYADNING SIRTQI ZICHLIGI** - jismning yupqa sirtqi qatlami bo'lqidagi joylashgan elektrik zaryad miqdorining shu bo'lak yuzasiga nisbati

**ZEEBEK (Th. J. SEEBECK) HODISASI** - payvandlari turilcha temperaturada bo'lgan turli jins metallar yoki yarimo'tkazgichlardan tuzilgan yopiq elektrik zanjirda termo - E.Y.U.K.ning vujudga kelishi

**ZEEMAN SAMARASI** - atomlar va boshqa atom tizimlarining magnitik maydonda energiya sathlari va spektral chiziqlarining ajralishi

**ZINER MODELI** - oraliq valentlikli o'tuvchi metallar oksidlardagi ferromagnetizm va elektrik o'tkazuvchanlik orasidagi bog'lanishni tushuntirish uchun dastlab 1951 yilda K. Ziner taklif qilgan model

**ZIVERT** - nurlanish ekvivalent dozasining  $SI$  dagi birligi; o'lchov va tarozilar 16-Bosh konferensiyasi tavsiya qilgan (1979).  $1 \text{ Zb} = 1 \text{ J/kg} = 10^2 \text{ ber}$

**ZICH JOYLASHUV** - muayyan hajmda eng ko'p son sharchalar o'rinn oladigan joylashuv

**ZICHLIK** - modda xossalaringin biror hajmda joylashgan modda massasining shu hajm kattaligiga nisbati bilan belgilanuvchi tavsifi

**ZONALAR NAZARIYASI** - kristall panjaraning davriy maydonida elektronlar harakatining taqribiyy nazariyasi

**ZONAVIY TUZILISH** - kristall panjaraning davriy maydonida elektronlar harakatining taqribiyy modeli

**O'RTACHA SOCHILGAN QUVVAT** - to'g'ri va teskari yo'nalishlarda tok o'tayotganida bir davr mobaynida diod sochib yuboradigan o'rtacha quvvat

**O'RTACHA TESKARI TOK** - teskari tokning bir davr mobaynidagi o'rtacha qiymati

**O'RTACHA TO'G'RI TOK** - to'g'ri tokning bir davr mobaynidagi o'rtacha qiymati

**O'STIRILGAN O'TISH** - yarimo'tkazgichni quyulmada o'stirilganda hosil bo'lgan o'tish

**O'TANOZIK TUZILISH** - atom energiya sathlari atom elektronlari magnitik maydonining atom yadrosi magnitik momenti bilan o'zaro ta'siri tufayli yuzaga keluvchi yaqin joylashgan sathlarga ajralishi

**O'TAPANJARA** - elektronlarga kristall panjaraning davriy potensialidan tashqari panjara doimisiidan ancha katta davrli sun'iy

yaratiluvchi potensial ham ta'sir qiluvchi ko'p qatlamlari qattiq tarkibli tuzilma

**O'TAYUQORI VAKUUM** - boshqa gazdan holi bo'lgan sirming xossalari uning gaz molekulalari bilan o'zaro ta'siri natijasida kuzatish vaqt ichida o'zgarishsiz qoladigan holdagi vakuum

**O'TISH TESKARI QARSHILIGINING TIKLANISHI** - o'tishni to'g'ri yo'nalishdan teskari yo'nalishga qayta ulangandan so'ng o'tish teskari qarshiligining statsionar qiyamatigacha ma'lum vaqt davomida tiklanishidan iborat o'tish jarayoni

**O'TISH TO'G'RI QARSHILIGINING TIKLANISHI** - o'tishni teskari yo'nalishdan to'g'ri yo'nalishga qayta ulangandan so'ng o'tish to'g'ri qarshiligining statsionar qiyamatigacha ma'lum vaqt davomida tiklanishidan iborat o'tish jarayoni

**O'TKAZGICH** - elektrik o'tkazuvchanligi katta bo'lgan modda

**O'TKAZUVCHANLIK ELEKTRONLARI** - o'tkazuvchanlik zonasida turgan elektronlar

**O'TKAZUVCHANLIK ELEKTRONLARINING KRITIK KONSENTRATSIYASI** - Fermi sathi o'tkazuvchanlik zonasini quyi chegarasi bilan ustma-ust tushgan hol uchun o'tkazuvchanlik elektronlari konsentratsiyasi

**O'TKAZUVCHANLIK KOVAGI** - valent zonada elektron egallamagan energiyaviy holat

**O'TKAZUVCHANLIK KOVAKLARINING KRITIK KONSENTRATSIYASI** - Fermi sathi valent zonaning yuqorigi chegarasi bilan ustma-ust tushgan hol uchun o'tkazuvchanlik kovaklari konsentratsiyasi

**O'TKAZUVCHANLIK TOKI** - o'tkazgichda elektrik maydon ta'sirida yuzaga keluvchi elektrik tok

**O'TKAZUVCHANLIK ZONASI** - uyg'otilganda (masalan, termik uyg'otishda) sathlarida elektronlar tura oladigan erkin zona

**O'ZDIFFUZIYA** - sof moddadagi diffuziyaning xususiy zarralari diffuziyalanadigan alohida holi

**O'ZGARMAS TESKARI TOK** - berilgan teskari kuchlanishda diodda teskari yo'nalishda oqayotgan o'zgarmas tok qiymati

**O'ZGARMAS TO'G'RI TOK** - diod orqali to'g'ri yo'nalishda oqayotgan o'zgarmas tok qiymati

**O'ZGARTIRUVCHI YARIMO'TKAZGICH DIOD** - aralashtirgich, ko'paytirgich va modullagich sifatida qo'llanishga mo'ljallangan yarimo'tkazgich diod

**O'ZGARUVCHAN TOK** - bir davr ichida tok kuchi va kuchlanishning o'rtacha qiymatlari nolga teng bo'ladigan, vaqt davomida davriy o'zgaruvchi elektrik tok

**O'Z-O'ZIDAN O'TISH** - o'z-o'zidan nurlanish chiqarish bilan kuzatiladigan o'tish

**G'ADIR-BUDUR SIRT** - sirt bo'ylab yorug'likning to'lqin uzunligicha masofaga o'tilganda uning egrilik radiusi to'lqin uzunligiga monand o'zgaradigan sirt

**CHALA TESHILISH** - ajratgichning elektrodlararo sohasi qismining teshilishi

**CHEKKA DISLOKATSIYASI** - kristall ichida uzilib qolgan atomiy tekislik modeli bo'lib xizmat qila oladigan dislokatsiya

**CHIQISH ISHI** - elektronni qattiq jismdan yoki suyuqlikdan vakuumga chiqarish uchun sarflanadigan energiya

## ADABIYOT

1. Habibullaev P.Q., Nazirov E.N., Otajonov Sh.O., Nazirov D.E. Fizika izohli lug'ati. T. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2002.
2. Rashidova S.Sh., Usimonov T.I., Nazirov E.N. Polimerlar sohasidagi ruscha-o'zbekcha-inglizcha atamalar lug'ati. T. "Fan" nashriyoti, 2001.
3. Abdurazzoqov A.A., Nazirov E.N. Yadro fizikasidan ruscha-o'zbekcha terminlar lug'ati. T. "O'zSE" nashriyoti, 1988.
4. Mallin R.X., Nazirov E.N., Qodirov R.M. Fizikadan ruscha-o'zbekcha terminlar lug'ati. T. "O'qituvchi" nashriyoti, 1974.
5. Современные проблемы терминологии в науке и технике. М. "Наука" nashriyoti, 1969.
6. Физическая энциклопедия. М. "Российская энциклопедия" nashriyoti, 1989-1995 y.y. I-V tomlar.
7. Akramov H., Zaynobiddinov S., Teshaboyev A. Yarimo'tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar. T. "O'zbekiston" nashriyoti, 1974.
8. Zaynobiddinov S., Teshaboyev A. Yarimo'tkazgichlar fizikasi. T. "O'qituvchi" nashriyoti, 1999.
9. Teshaboyev A., Zaynobiddinov S., Ermatov Sh. Qattiq jism fizikasi. T. "Moliya" nashriyoti, 2001.
10. Vlasov S.I., Nazirov D.E., Begmatova D.A. Yarimo'tkazgich asboblar fizikasidan praktikum. T. "Universitet", I, II - qismlar. 2000.
11. Yunusov M.S., Vlasov S.I., Nazirov D.E., Tolipov D.O. Elektron asboblar. T. O'zMU, 2003.
12. Nazirov E.N., Teshaboyev A.T., Nazirov D.E. Yarimo'tkazgich terminlari. O'zMU, 2003.
13. Teshaboyev A., Zaynobidinov S., Karimov I., Rahimov N., Aliev R. Yarimo'tkazgich asboblar fizikasi. Andijon, "Hayot". 2002.
14. Teshaboyev A., Nazirov D.E. va b. «Ergash Nazirov. Tanlangan asarlar». T., O'zMU, 2007.

Босишаға ғұхсат этилди 16.07.2008. Ҳажмі 19.5 босма табок.  
Бичими 60×84 1/16. Адади 100 нұсқа. Буюртма 195.  
М.Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети  
босмахонасида чол этилди.